2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 207 (1806), 2026-yil 7-oktabr, chorshanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

O‘ZBEKISTON PREZIDENTIGA FAONING OLIY MUKOFOTI – “AGRICOLA” MEDALI TOPSHIRILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 6-oktabr kuni BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) bosh direktori Syuy Dunyuyni qabul qildi.



FAO rahbari Butunjahon paxta kuniga bag‘ishlangan xalqaro konferensiya hamda dengizga chiqish imkoni bo‘lmagan rivojlanayotgan mamlakatlarning agrar va oziq-ovqat tizimlarini rivojlantirishga bag‘ishlangan ikkinchi forumda ishtirok etish uchun yurtimizda bo‘lib turibdi.

O‘zbekiston bilan BMTning mazkur nufuzli tuzilmasi o‘rtasida oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash va qishloq xo‘jaligini rivojlantirish bo‘yicha strategik sheriklikni yanada mustahkamlash masalalari muhokama qilindi.

So‘nggi yillarda amaliy hamkorlik doirasida erishilgan natijalar mamnuniyat bilan qayd etildi. Yangi besh yillik dastur qabul qilindi. Ayni paytda 27 ta qo‘shma loyiha faol bosqichga kirgan.

O‘zbekiston ilk bor 2028-yildan 2029-yilgacha bo‘lgan davr uchun FAO Kengashi tarkibiga saylandi. 7-oktabr kuni Toshkentda dengizga chiqish imkoniyati bo‘lmagan mamlakatlar uchun Agroinnovatsiyalar xabi ishga tushiriladi.

Uchrashuv davomida yangi hamkorlik dasturini samarali amalga oshirish, qishloq xo‘jaligini raqamlashtirish va sohaga sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish, iqlim moliyasi mablag‘larini jalb qilish, tajriba almashish hamda mutaxassislar tayyorlash kabi yo‘nalishlarda istiqbolli qo‘shma loyihalar portfelini ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratildi.

Samimiy muloqot yakunida Syuy Dunyuy O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, qishloq va suv xo‘jaligini rivojlantirish sohalaridagi tashabbuslari va erishgan yutuqlarining yuksak e’tirofi sifatida davlatimiz rahbariga FAOning oliy mukofoti — “Agricola” medalini topshirdi.

BMTning FAO tashkiloti tomonidan 1977-yilda ta’sis etilgan “Agricola” medali ochlikka barham berish va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash kabi umuminsoniy maqsadlarga erishish yo‘lida fidoyilik ko‘rsatgan atoqli arboblarga beriladi.

O‘zA

“LUKOYL” KOMPANIYASI TOMONIDAN AMALGA OSHIRILAYOTGAN LOYIHALARNING BORISHI BILAN TANISHILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Lukoyl” kompaniyasi asoschisi Vagit Alekperovni qabul qildi.

Vagit Alekperov davlatimiz rahbariga kompaniya tomonidan O‘zbekiston energetika tarmog‘ida amalga oshirilayotgan loyihalarning joriy holati haqida batafsil axborot berdi. Geologiya-qidiruv ishlarini olib borish va istiqbolli uglevodorod konlarini o‘zlashtirish, neft mahsulotlari chakana savdosi tarmog‘ini rivojlantirish loyihalari shular jumlasidan.

Kompaniyaning mamlakatimizdagi faoliyatini kengaytirish bo‘yicha rejalar ham ko‘rib chiqildi.

O‘zA

Ichiro XIROSAVA: “OSIYO O‘YINLARIDA O‘ZBEKISTON QIT’ANING YETAKCHI SPORT DAVLATLARIDAN BIRI SIFATIDA O‘Z SALOHIYATINI TO‘LA NAMOYON ETDI”

Nagoya shahri meri O‘zbekiston delegatsiyasining XX Osiyo o‘yinlaridagi yutuqlari haqida fikr bildirdi.

Nagoya shahri meri Ichiro Xirosava “Dunyo” AAga bergan intervyusida Yaponiyaning Aichi prefekturasidagi Nagoya shahrida o‘tkazilgan XX Osiyo o‘yinlarida o‘zbekistonlik sportchilar erishgan natijalarni yuqori baholadi:

— XX Osiyo o‘yinlarida O‘zbekiston sport delegatsiyasining yorqin va muvaffaqiyatli ishtiroki munosabati bilan Nagoya shahri aholisi nomidan samimiy tabriklarimni izhor etaman.

Ushbu musobaqalarda O‘zbekiston sportchilari kurash, akademik eshkak eshish, kanoe va boshqa ko‘plab sport turlarida yuksak natijalarga erishib, Osiyoning yetakchi sport davlatlaridan biri sifatida o‘z salohiyatini to‘la namoyon etdi.

Sportchilarning shijoat va g‘ayratga boy harakatlari, 21 ta oltin, 25 ta kumush va 24 ta bronza medalni qo‘lga kiritishi ko‘plab tomoshabinlarda katta taassurot qoldirib, musobaqalarning yanada ko‘tarinki ruhda o‘tishiga katta hissa qo‘shdi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda sportni rivojlantirish borasida erishilayotgan yutuqlar alohida e’tiborga loyiq bo‘lib, xalqaro maydonda muvaffaqiyatli ishtirok etayotgan ko‘plab yuqori salohiyatli sportchilarni yetishtirishga xizmat qilmoqda.

Davomi 2-betda

EHTIYOJMAND OILALARNI QO‘LLAB-QUVVATLASH KO‘LAMI KENGAYTIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev kuz-qish mavsumida aholini, ayniqsa, ehtiyojmand oilalarni ijtimoiy himoya qilish bo‘yicha takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Dunyodagi geosiyosiy keskinlik, energiya resurslari va xomashyo narxlarining o‘sishi, ta’minot va logistika zanjirlaridagi uzilishlar ko‘plab mamlakatlarda inflyatsion bosimni kuchaytirmoqda. Bunday sharoitda aholi xarajatlarini yengillashtirish va muhtoj oilalarga manzilli yordam ko‘rsatish alohida ahamiyat kasb etadi.

Taqdimotda elektr energiyasi, gaz, ko‘mir va kommunal xizmatlar uchun to‘lovlar bo‘yicha amaldagi qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Xususan, isitish mavsumida gazlashmagan hamda gaz yetib bormagan hududlarda elektr energiyasi bo‘yicha bazaviy me’yorni 200 kilovatt-soatdan 350 kilovatt-soatga oshirish taklifi ma’qullandi.

Dekabr oyida ehtiyojmand oilalarga bir martalik moddiy yordam ajratish masalasini ko‘rib chiqish taklif qilindi.

Shuningdek, Ijtimoiy reyestrga kirmagan ehtiyojmand oilalarning elektr energiyasi, gaz, ko‘mir va kommunal xizmatlar xarajatlarini qoplashda oilaning har bir a’zosiga qo‘llaniladigan daromad mezonini 1 million 430 ming so‘mgacha oshirish taklifi ko‘rib chiqildi. Natijada qo‘llab-quvvatlash qamrovi yana 166 ming oilaga kengayadi.

Elektr energiyasi va gaz bo‘yicha bazaviy me’yordan ortiq iste’moli xarajatlarining bir qismini qoplash muddatini 2028-yil 1-aprelgacha uzaytirish taklif qilindi. Bu chora bilan bir yilda 470 ming oilani qamrab olish nazarda tutilmoqda. Sharoiti og‘ir mahallalardagi 3 mingta xonadonni issiqlik jihatidan himoyalash va energiya tejovchi uskunalar bilan ta’minlash ishlari ham davom ettiriladi.

Davlatimiz rahbari Hukumatga belgilangan yordam uchun mablag‘larni o‘z vaqtida yo‘naltirish, ehtiyojmand oilalarni aniqlashda manzillilikni ta’minlash va yordam har bir oilaga yetib borishi ustidan nazoratni kuchaytirishni topshirdi.

Shuningdek, energiya resurslarini ishlab chiqaruvchi hamda yetkazib beruvchi korxonalar faoliyatini transformatsiya qilish, boshqaruv samaradorligini oshirish, ortiqcha xarajatlar va tarmoqlardagi yo‘qotishlarni qisqartirish bo‘yicha ham qator ko‘rsatmalar berildi.

O‘zA



Qishloq xo‘jaligida yetishtirilayotgan hosil ortida nafaqat dehqon mehnati, balki yillar davomida to‘plangan ilmiy tajriba, seleksiya izlanishlari, agrotexnologik tavsiyalar va zamonaviy innovatsiyalar ham turadi. Bugungi iqlim o‘zgarishi, oziq-ovqat xavfsizligi, tuproq unumdorligi, suv taqchilligi va bozor talablari kabi murakkab masalalarni ilm-fansiz hal etib bo‘lmaydi. Shu ma’noda, agrar ilm-fan mamlakat qishloq xo‘jaligining kelajagini belgilaydigan, ishlab chiqarish samaradorligini oshiradigan va tarmoqni yangi bosqichga olib chiqadigan asosiy kuchlardan biridir.

AGRAR ILM-FAN VA INNOVATSION FAOLIYAT

barqaror taraqqiyotning eng muhim talabi

O‘zbekistonda agrar sohani rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Ilmiy tadqiqotlarni ishlab chiqarish bilan integratsiyalash, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, agroklasterlar, kooperativlar, fermer va dehqon xo‘jaliklari hamda tomorqa yer egalariga innovatsiyalarni yetkazish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar qilinmoqda. Bunda ilm-fan faqat laboratoriya yoki ilmiy maqola doirasida qolib ketmay, dalaning o‘zida, issiqxonada, bog‘da, chorvachilik majmuasida va qayta ishlash korxonasida o‘z samarasini ko‘rsatishi muhim.

Davomi 4-betda

Buyuk o‘zbek yo‘li

BILIM VA MALAKA – MILLIY YUKSALISHNING ASOSIY KAPITALI

BIRINCHI MILLIY DASTUR SHARHI



Vatanimiz mustaqilligining 35 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda milliy taraqqiyotimizning yangi bosqichida bilim va malakani mamlakatimizning kelgusi taraqqiyotini ta’minlaydigan asosiy kapitalga aylantirish ustuvor vazifa sifatida belgilab berildi. Ushbu ezgu g‘oya yangi O‘zbekiston taraqqiyot falsafasining mazmun-mohiyatini o‘zida mujassam etgan desam, yanglishmagan bo‘laman. “Biz ta’lim bilan bir qatorda ilm-fan, zamonaviy texnologiya va innovatsiyalarni ham taraqqiyotimizning hal qiluvchi omili deb bilamiz”, deya ta’kidladi Prezidentimiz.

Alisher Navoiy ilmni insonni kamolot sari yetaklovchi, jaholatni bartaraf etib, ma’naviy olamni yorituvchi buyuk kuch sifatida tarannum etgan. Uning:

Jaholatdan ilmu yiroq qilg‘ay,
Bilim ila ko‘ngling charog‘ qilg‘ay

degan hikmati bugun ham ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Millatimizning ikki fidoyisi ilgari surgan bu da’vatkor fikrlar har birimizni yosh avlod ma’rifati haqida qayg‘urishga chorlaydi. Chunki bugungi zamon talabi bunday: endi bilimni egallashning o‘zi kifoya emas, uni tahlil qilish, yangi g‘oyaga aylantirish, texnologiya bilan uyg‘unlashtirish hamda inson va jamiyat manfaatiga xizmat qildirish hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

Insoniyat sivilizatsiyasining eng buyuk yutuqlari, avvalo, inson tafakkurining yuksalishi bilan bog‘liq. Odam olovni o‘zlashtirdi, yozuvni kashf etdi, tabiat qonuniyatlarini angladi, koinot sirlarini o‘rgandi, elektr va kompyuterni ixtiro qildi. Bugun esa sun’iy intellekt inson tafakkurining imkoniyatlari bilan yangi texnologik bosqichni boshlab bermoqda.

Shubhasiz, tamaddunning asosiy mohiyati bilimning avloddan avlodga o‘tishi, yangi bilimga aylanishi va inson hayotini o‘zgartirishidir.

Davomi 3-betda

Ichiro XIROSAVA:

“OSIYO O‘YINLARIDA O‘ZBEKISTON QIT’ANING YETAKCHI SPORT DAVLATLARIDAN BIRI SIFATIDA O‘Z SALOHIYATINI TO‘LA NAMOYON ETDI”

Boshlanishi 1-betda



Ushbu Osiyo o‘yinlarida o‘zbekistonlik sportchilar qayd etgan natijalar ana shunday tinimsiz mehnat va sa’y-harakatlar samarasi bo‘lib, Osiyo sporti taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘shishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Ayni paytda sportchilaringizning nafaqat musobaqalar davomida, balki sport maydonidan tashqarida ham namoyon etgan yuksak madaniyat va odob-axloqi qalbimizga xursandlik ulashdi. G‘alaba quvonchini jamoadoshlari bilan birgalikda baham ko‘rishi, raqiblarga doimo hurmat bilan munosabatda bo‘lishi hamda so‘nggi daqiqalargacha bor kuch va g‘ayratini namoyish qilishi Nagoya shahri aholisida yorqin taassurot qoldirdi.

O‘zbekiston vakillari yuksak sport mahorati va olijanob insoniy fazilatlarni o‘zida mujassam etgan atletlar sifatida musobaqalarning asosiy g‘oyalarini amalda namoyon etdi.

Nagoya shahridagi boshlang‘ich maktablarda tashkil etilgan tadbirlarda qatnashgan, dzyudo bo‘yicha muvaffaqiyatga erishgan O‘zbekiston sportchilariga alohida minnatdorligimni bildiraman. Jahon miqyosida yuqori natijalarga erishayotgan sportchilar bilan bevosita muloqot qilish va ulardan o‘rganish imkoniyati bolalar uchun beqiyos tajriba bo‘ldi.

Dzyudochilarning sportga ishtiyoq, mehnat va intilishning ahamiyati, hurmat va odobga sadoqat hamda qiyinchiliklarga qarshi mardona kurashish haqidagi fikrlari kelajak egalari bo‘lgan bolalarga katta orzu va umid bag‘ishladi. Ushbu samimiy va iliq muloqot uchun yana bir bor tashakkur bildiraman.

Nagoya va Toshkent shaharlari o‘rtasida turizm va madaniy almashinuv yo‘nalishida hamkorlik to‘g‘risidagi bitim imzolangan. Ushbu sheriklik asosida o‘zaro do‘stlik munosabatlari izchil rivojlanib kelmoqda.

Osiyo o‘yinlari doirasida shakllangan do‘stona muloqot Toshkent va Nagoya shaharlari o‘rtasidagi rishtalarni mustahkamlaydi. Bu sa’y-harakatlar kelgusida o‘zaro anglashuv va do‘stlik munosabatlarini yanada rivojlantirishga katta hissa qo‘shadi.

Fursatdan foydalanib, O‘zbekiston sport delegatsiyasining barcha a’zolariga mustahkam sog‘liq, kelgusi faoliyatlarida yanada ulkan muvaffaqiyat, O‘zbekiston xalqiga esa farovonlik va ravnaq tilayman.

> **Dzyudochilarning sportga ishtiyoq, mehnat va intilishning ahamiyati, hurmat va odobga sadoqat hamda qiyinchiliklarga qarshi mardona kurashish haqidagi fikrlari kelajak egalari bo‘lgan bolalarga katta orzu va umid bag‘ishladi. Ushbu samimiy va iliq muloqot uchun yana bir bor tashakkur bildiraman.**

“Dunyo” AA
Nagoya shahri

Kechagi ezgu niyat — bugungi haqiqat

IMKONIYAT VA IMTIYOZLARGA MUNOSIB BO‘LISHGA BEL BOG‘LADIK

“Yaxshi xabarning qanoti bor”, deyishadi. Poytaxtdan ko‘kka bo‘ylagan quvonchli mujda Surxon vohasi — Jarqo‘rg‘on tumaniga juda tez yetib bordi. Tumandagi ixtisoslashtirilgan maktabning biologiya fani o‘qituvchisi Nodira Qulmanova “Shuhrat” medaliga munosib ko‘rildi. Bu xabarni birinchi bo‘lib eshitgan maktab direktori quvonchdan o‘rnidan turib ketdi.

U Nodira Qulmanova dars berayotgan xona tomonga shoshdi. U yo‘lak bo‘ylab ketib borar ekan, quvonchini uchraganlarga ulashib bordi. Lekin o‘qituvchining darsini bo‘lib bo‘lmaydi. Keyingi yillarda maktab ta’limida “dars — muqaddas” degan tushuncha tom ma’noda o‘z ifodasini topmoqda. Shu o‘yda direktorning qadam olishi sekinladi. U yo‘lakda u yoqdan bu yoqqa borib kela boshladi...

Nodira Qulmanova Jarqo‘rg‘on tumanidagi Qorayog‘och mahallasida, oddiy oilada tug‘ilib o‘sdi. U bolaligidanoq ustoz bo‘lish, yoshlarga bilim berishdek ezgu maqsadda ulg‘aydi. Bu intilish uni 2012-yilda Termiz davlat universiteti sari yetakladi. Oliygohni 2016-yilda muvaffaqiyatli tamomlab, ilk mehnat faoliyatini o‘zi ta’lim olgan dargoh — tumandagi 50-umumta’lim maktabida boshladi. Uning kamolotida maktab davridagi murabbiylarining xizmati katta edi. Ustozlari nigohlaridagi o‘sha yoniq nur va ilmga sadoqat endi Nodiraning ham hayot mash’alasiga aylangandi.

— Maktabda a’lo baholarda o‘qib, oliygohga kirib tahsil olib, yonimizga hamkasb bo‘lib kelganida Nodiraga “Ilm-salohiyating yuqori, nega katta shaharlarda qolmaysan?” deya so‘radim, — deydi Jarqo‘rg‘on tumanidagi ixtisoslashtirilgan maktabning faxriy o‘qituvchisi Salomat Murodova. — Shunda u “Bolaligimda qo‘limga ilk qalam tutgan ustozlarim — sizlar tufayli shu kasbni egalladim. Ustoz deganda, ko‘z o‘ngimda siz gavdalanaverasiz. Sizlar eng kuchli o‘qituvchisizlar, qishloqning mashaqqati, zahmati bilan birga yelkangizga nur yelkalab yurarkansizlar, sizlardek eng kuchli bo‘lmoqchiman”, degandi.

Inson o‘z kasbi ortidan katta marralarni zabt etishi uchun, avvalo, munosib sharoit zarur. Bugun mamlakatimizda ustozlarning jamiyatdagi maqomini ko‘tarish va ularni qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. Jarqo‘rg‘on tumanidagi ixtisoslashtirilgan maktabdagi muhit buning amaliy isbotidir.

— Maktabimizda 50 pedagog 485 iqtidorli o‘quvchiga saboq bermoqda. Muassasamizning biologiya, kimyo va fizika laboratoriyalari eng so‘nggi texnologiyalar, interaktiv doskalar va zamonaviy kompyuterlar bilan jihozlangan. Xalqaro IELTS va SAT imtihonlariga tayyorgarlik xonalari esa o‘quvchilarimizning jahon maydonlarida erkin raqobatlashishi uchun puxta poydevor bo‘lib xizmat qilyapti, — deydi ixtisoslashtirilgan maktab direktori Abduzohid Qurbonov.

Nodira Qulmanovaning malakali mutaxassis bo‘lib shakllanishida atrofidagi ilmiy, o‘quv muhitining o‘rni beqiyos. Nodira ana shunday jonkuyar hamkasblar davrasida mehnat qilib, mahoratini yanada charxlayapti. Jamoadagi o‘zaro hurmat va madad ruhi uning izlanishlariga qanot bo‘lyapti. Oliy toifali o‘qituvchi sifatida u nafaqat “A+” darajali milliy sertifikat, balki o‘z kasbiy mahorati bilan “vazir ustamasi”ni ham qo‘lga kiritgan. Bu yutuqlar uning o‘z ustida tinimsiz ishlashi va yangilikka intilishi mahsulidir. Yosh o‘qituvchining zahmatli mehnatlari shogirdlari yutug‘ida bo‘y ko‘rsatmoqda. Uning yuzlab tarbiyalanuvchilari nufuzli oliygohlarda tahsil olmoqda. O‘nlab shogirdlari respublika fan olimpiadalarida faxrli o‘rinlarni egallab, xalqaro fan olimpiadalarida terma jamoa a’zolariga aylanmoqda.

O‘sha kuni maktab direktori xushxabarni yetkazish uchun tanaffus bo‘lishini kutdi. Besh daqiqali tanaffusda butun maktabga quvonchli mujda tarqalib, barcha birdek xursand bo‘ldi.

— Quvonarlisi, bu yil Surxon vohasidan jami olti zahmatkash o‘qituvchi davlat mukofotlariga loyiq ko‘rildi, — dedi faxriy o‘qituvchilardan biri Madina Ravshanova. — Bu ham viloyatimizda o‘qituvchilar obro‘si oshib, o‘z ustida tinimsiz mehnat qilayotganidan dalolat.

Iqtidorli yosh o‘qituvchi mukofotni davlatimiz rahbarining shaxsan o‘zidan qabul qilib olish uchun Toshkent shahriga qushdek uchib keldi.

Prezidentimiz O‘qituvchi va murabbiylar kuni arafasida pedagoglar bilan uchrashib, Nodira Qulmanova kabi o‘qituvchilarga qanot beradigan bir qancha tashabbus va takliflarni ilgari surdi.

— Davlatimiz rahbarining “O‘qituvchi — mehr daryosi, o‘qituvchi — ezgulik bulog‘i, o‘qituvchi — ma’rifat quyoshi!” degan so‘zlaridan boshimiz ko‘kka yetdi, — deydi qahramonimiz. — Chunki bu shunchaki maqtov emas, yangi O‘zbekistonda muallimlar obro‘si, sha’nini yuksaltirishga qaratilgan yana bir chaqiriq, vazifa deb o‘ylayman. Mamlakatimizda yoshlarning ta’lim-tarbiyasi davlat siyosatining ustuvor vazifasiga aylangan. Buni yangi tashabbuslarda ko‘rishimiz mumkin. Masalan, boshlang‘ich sinflar uchun ham fan olimpiadalari yo‘lga qo‘yiladigan bo‘ldi. Kelasi yildan 4-sinflar o‘rtasidagi tanlov g‘oliblari kompyuter, ularning ustozlari esa bosqichiga qarab pul mukofotlari bilan rag‘batlantiriladi. Bundan tashqari, yangi o‘quv yilidan 100 ta maktabda matematika, informatika va tabiiy fanlar ayrim sinflarda to‘liq ingliz tilida o‘qitiladi. Ushbu loyiha o‘qituvchilari va maktabga tayyorlov guruhi pedagoglariga 100 foiz ustama belgilanadi. Bunday yangiliklarni sanab, sanog‘idan adashib ketdik. Bularning barchasi yoshlar kamoli uchun tashlangan katta qadam deb o‘ylayman. Endi biz, o‘qituvchilar ham shunga munosib bo‘lib, yanada yaxshiroq ishlab, o‘quvchilarga chuqur bilim berishga bel bog‘ladik.

Sarvar TO‘RAYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

OROLBO‘YIDA AHOLI BANDLIGI

KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHGA TIZIMLI YONDASHUV

Bugun hududlar taraqqiyotini baholashda iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan birga aholi daromadi, ish bilan ta’minlanganlik darajasi, kambag‘allikni qisqartirish va ijtimoiy himoyaning samaradorligiga ham muhim mezon sifatida qaralmoqda. Chunki iqtisodiy o‘sishning eng katta natijasi inson hayoti, oilasi farovonligi va kelajakka ishonchida namoyon bo‘ladi.



Pardagul RAZZOQOVA,
Xalq deputatlari Beruniy tumani kengashi deputati

Shu nuqtai nazardan, Beruniy tumanida aholi bandligini ta’minlash, kambag‘allikni qisqartirish va yangi daromad manbalarini shakllantirish borasidagi ishlar kompleks va tizimli yondashuv asosida bajarilayotgani bilan ahamiyatli.

Aholi bandligini ta’minlash faqat ish o‘rni ochish yoki ishsiz fuqaroni ishga joylashtirishdan iborat emas. Uning zamirida insonning mehnati, bilimi va tashabbusi orqali barqaror daromad topishi uchun zarur sharoitlar yaratish g‘oyasi mujassam.

Beruniy tumanida bu borada tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, qishloq xo‘jaligi imkoniyatlaridan samarali foydalanish, xizmat ko‘rsatish sohalarini rivojlantirish, qurilish hamda investitsiya loyihalarini amalga oshirish kabi yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Bunday yondashuvning muhim jihati shundaki, aholi faqat tayyor ish o‘rnini kutib o‘tirmaydi, balki o‘zini o‘zi band qilish, tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish va iqtisodiy imkoniyatlardan foydalanishga rag‘batlantiriladi. Natijada bandlik masalasi ijtimoiy yordam doirasidan chiqib, iqtisodiy faollik va shaxsiy tashabbusni rag‘batlantiruvchi mexanizmga aylanadi.

Kambag‘allikni qisqartirishda eng muhim masala — oilani vaqtincha qo‘llab-quvvatlash bilan cheklanib qolmaslik. Barqaror natijaga erishish uchun oiladagi imkoniyatlarni aniqlash, mehnatga layoqatli a’zolarni ish bilan ta’minlash, tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash va doimiy daromad manbaini shakllantirish zarur.

Beruniy tumanida ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar bilan ishlashda ana shu tamoyil tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ya’ni ijtimoiy yordamdan maqsad insonni muttasil yordamga muhtoj holatda saqlab qolish emas, balki uning iqtisodiy mustaqilligini ta’minlashga xizmat qilishi kerak.

Bu esa mahalla darajasida har bir oilaning ijtimoiy-iqtisodiy holatini chuqur o‘rganish, uning ehtiyoji va imkoniyatlarini aniqlash hamda individual yondashuv asosida ish yuritishni taqozo etadi.



Farovonlik xaritasi

Aholi bandligi va kambag‘allikni qisqartirishda mahalla institutining o‘rni alohida. Chunki insonning real ehtiyoji, oilaning muammosi, salohiyati va tadbirkorlikka qiziqishi, eng avvalo, mahalla darajasida aniqlanadi.

Shu bois, hududda ko‘rilayotgan chora-tadbirlar samaradorligi nafaqat ochilgan ish o‘rinlari, balki har bir oilaning iqtisodiy holatida yuzaga kelgan o‘zgarishlar bilan baholanishi muhim.

> **Prezidentimiz shu yil 18-19-sentabr kunlari Qoraqalpog‘istonga tashrifi chog‘ida Nukus tumanidagi Diyqan arna mahallasida bo‘lib, shu yerda hudud faollari, nuroniylar va yoshlar bilan samimiy muloqot qildi. Orolbo‘yini rivojlantirish va aholi turmush darajasini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan ekanini ta’kidlab, mahallalarda boshlangan bunday xayrli ishlar ko‘lami kengayib, ularni amalga oshirish sur’ati yanada jadallashishini qayd etdi.**

Bu yondashuv umumiy raqamlardan voz kechib, inson taqdiriga daxldorlik hissini anglashga xizmat qiladi. Ya’ni har bir ishsiz fuqaro, har bir kam ta’minlangan oila va har bir tadbirkorlik tashabbusi alohida e’tibor obyektiga aylanishi lozim.

Prezidentimiz shu yil 18-19-sentabr kunlari Qoraqalpog‘istonga tashrifi chog‘ida Nukus tumanidagi Diyqan arna mahallasida bo‘lib, shu yerda hudud faollari, nuroniylar va yoshlar bilan samimiy muloqot qildi. Orolbo‘yini rivojlantirish va aholi turmush darajasini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan ekanini ta’kidlab, mahallalarda boshlangan bunday xayrli ishlar ko‘lami kengayib, ularni amalga oshirish sur’ati yanada jadallashishini qayd etdi.

Iqtisodiy faollik — oila farovonligining asosiy kafolati. Aholi daromadini oshirishda eng yuqori salohiyat qishloq xo‘jaligi, xizmat ko‘rsatish, kichik biznes, hunarmandchilik, qurilish va boshqa sohalarda mavjud.



Beruniy tumani uchun, ayniqsa, qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish sohalari aholi bandligini kengaytirishda muhim imkoniyatdir. Mavjud resurslardan samarali foydalanish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, tadbirkorlik tashabbuslarini rag‘batlantirish va yangi investitsiya loyihalarini amalga oshirish orqali yangi daromad manbalarini ochish mumkin.

Shu bilan birga, bu jarayonda faqat ish o‘rinlarining soni emas, balki barqarorligi, rasmiyligi, mehnat sharoiti va daromad darajasi ham muhim ahamiyatga ega. Chunki haqiqiy farovonlik bir martalik daromad yoki vaqtinchalik ish bilan emas, balki insonning uzoq muddatli va barqaror iqtisodiy faolligi bilan ta’minlanadi.

Kambag‘allikni qisqartirish va aholi bandligini ta’minlash jarayonining eng muhim natijasi statistik ko‘rsatkichlarda emas, balki insonning hayotidagi ijobiy o‘zgarishlarda namoyon bo‘ladi.

Oilada barqaror daromad paydo bo‘lishi farzandlar ta’limi, sog‘lig‘i va kelajagiga ko‘proq investitsiya kiritish imkoniyatini beradi. Tadbirkorlikka kirib kelgan inson esa nafaqat o‘z oilasi, balki boshqa fuqarolar uchun ham yangi imkoniyatlar ochishi mumkin.

Shu ma’noda, bitta ish o‘rni — bitta statistik raqam emas. Uning ortida bir insonning iqtisodiy mustaqilligi, bir oilaning farovonligi va jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlik mujassam. Kelgusi vazifa natijadorlikni barqarorlashtirish, erishilgan natijalarni yanada mustahkamlash uchun bandlik va kambag‘allikni qisqartirish siyosatida natijadorlikka asoslangan yondashuvni kuchaytirishdir.

Bunda, avvalo, aholining mehnat salohiyatini to‘liq ishga solish, kasb-hunarga o‘qitishni mehnat bozori ehtiyojlari bilan uyg‘unlashtirish, xotin-qizlar va yoshlarning iqtisodiy faolligini oshirish, tadbirkorlik loyihalarini qo‘llab-quvvatlash va ochilgan ish o‘rinlarining barqarorligini ta’minlash muhim.

Shuningdek, kambag‘allikdan chiqqan oilalarni keyingi bosqichda ham kuzatib borish, ularning yana ijtimoiy himoyaga muhtoj holatga tushib qolishining oldini olish ham dolzarb vazifadir. Buning uchun har bir oila bilan ishlashda “muammoni aniqlash — imkoniyatni belgilash — yechimni amalga oshirish — natijani kuzatish” tamoyili asosida ish yuritish maqsadga muvofiq.

Beruniy tumanida aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish borasidagi ishlar mohiyatan bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan yagona jarayonni tashkil etadi. Uning markazida esa inson manfaati turibdi. Aholiga ish o‘rni ochish, tadbirkorlik uchun sharoit yaratish, ijtimoiy himoyani manzilli tashkil etish va oilalarning daromadini oshirish orqali hududda nafaqat iqtisodiy faollik, balki ijtimoiy barqarorlik ham mustahkamlanadi.

YANGI O‘ZBEKISTON

www.yuz.uz yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

Birinchi milliy dastur — bilim va malakani kelgusi taraqqiyotimizning asosiy kapitaliga aylantirish.

3

2026-yil 7-oktabr, 207-son





Buyuk o‘zbek yo‘li



BILIM VA MALAKA – MILLIY YUKSALISHNING ASOSIY KAPITALI

BIRINCHI MILLIY DASTUR SHARHI



Bekzod NARIMONOV,
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) o‘rinbosari, yuridik fanlar doktori

Boshlanishi 1-betda

Uchinchi Renessansning eng katta tayanchi

Yangi O‘zbekiston falsafasi zamirida inson qadrini ulug‘lash, xalq bilan muloqotni davlat boshqaruvining muhim mezoniga aylantirish va islohotlar samarasini har bir mahalla, har bir xonadon va har bir fuqaroning kundalik hayotida aks ettirishdek teran g‘oya mujassam.

Bugun minglab mahallalarimizga yangi O‘zbekistonning yangi qiyofasi va yangicha tafakkuri kirib bormoqda. Ilgari mamlakatimiz iqtisodiyotiga yiliga 2-3 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb qilingan bo‘lsa, bugun ushbu ko‘rsatkich 40-50 milliard dollarga yetmoqda.

Shu ma’noda, so‘nggi o‘n yillikda mamlakatimizda amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlarning mohiyati va strategik ahamiyatini chuqur anglash uchun ilm-fan va ta’lim tizimida yuz bergan o‘zgarishlarga nazar tashlashning o‘zi kifoya.

Zero, mazkur yangilanishlar tasodifiy emas. Ular yangi O‘zbekistonni barpo etishning uzoq muddatli maqsad va vazifalariga uyg‘un strategik qarorlar, izchil islohotlar hamda davlatimiz rahbarining ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohasini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga qaratayotgan doimiy e’tibori va alohida mehrining mantiqiy natijasidir.

Dunyo hamjamiyatida munosib o‘rin egallash, global raqobat muhitida taraqqiyot yo‘limizni ishonch bilan davom ettirish uchun bizga, eng avvalo, bilimli, kelajak kasblarini puxta egallagan, kreativ fikrlaydigan yangi avlod mutaxassislari kerak. Zero, zamon o‘zgargani sari mehnat bozori ham, ta’limning vazifasi ham transformatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda.

Shu bois, mamlakatimiz ta’lim tizimidagi islohotlar jamiyatning ustozga va ma’rifatga munosabatini ham tubdan o‘zgartirdi. Muallimning jamiyatdagi obro‘-e’tiborini tiklash, mehnatini munosib qadrlash va daromadini izchil oshirib borish bu jarayonning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda.

E’tiborlisi, o‘tgan o‘n yilda aholi soni 8 millionga ko‘paygani holda bog‘cha qamrovi 78 foizga yetkazildi. Maktablarda 1,5 million qo‘shimcha o‘quvchi o‘rni ochildi. Prezident, ijod va ixtisoslashgan maktablarning tashkil etilgani farzandlarimizga yetakchi xorijiy ta’lim maskanlaridagidan kam bo‘lmagan darajada chuqur bilim olish uchun keng imkoniyatlar eshigini ochdi.

Mustaqillik arafasida Yangi O‘zbekiston universiteti, Nizomiy Ganjaviy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti, O‘zbekiston milliy kutubxonasining muhtasham binolari ochildi.

Bundan tashqari, yoshlarning xorijiy tillar va kasb-hunarlarni egallashi uchun ham munosib sharoit yaratilmoqda. Bu, aslida, yoshlarga dunyo bilan muloqot qilish, bilim va tajriba almashish, o‘z salohiyatini xalqaro miqyosda namoyon etish imkoniyatini berish demakdir.

Oliy ta’lim uchun yaratilayotgan imkoniyatlar hisobiga hozir talabalar soni 1 million 600 mingga yetdi. Yoshlarning bilim olishga ishtiyoqi kuchaydi. Ota-onalar uchun farzandini oliy ma’lumotli qilish erishish mumkin bo‘lgan aniq maqsadga aylandi.

Ayniqsa, talabalarning yarmidan ko‘pini xotin-qizlar tashkil etayotgani o‘ziga xos voqeadir. Zero, ayolning ta’lim olishi — bir insonning emas, butun bir avlodning intellektual kelajagiga qo‘yilgan sarmoya. Ma’rifatli qiz — bilimli oila, bu esa, o‘z navbatida, bilimli avlod, pirovardida ma’rifatli jamiyat demakdir.

Shuningdek, 2025-yil yakunlariga ko‘ra, O‘zbekistonning 7 ta oliy ta’lim muassasasi QS World University Rankings, 4 tasi Times Higher Education World University Rankings, 59 tasi esa THE Impact Rankings xalqaro reytinglariga kiritildi. Bu ko‘rsatkichlar mamlakatimizni Markaziy Osiyo va Kavkaz mintaqasida mazkur reytinglar bo‘yicha yetakchi davlatlardan biriga aylantirdi. Ushbu natijalar yangi O‘zbekistonda inson kapitaliga sarmoya kiritish, ilm-fan va ta’limni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida rivojlantirish o‘zining amaliy samarasini berayotganini yaqqol namoyon etmoqda.

Bu esa yurtimizga investitsiyalar bilan birga ilg‘or texnologiyalar, zamonaviy bilim va boshqaruv tajribasi, yangi ishlab chiqarish madaniyati hamda iqtisodiy imkoniyatlar kirib kelyapti degani. Natijada islohotlar insonning bilimi va malakasi, mehnat salohiyati va hayot sifatida namoyon bo‘layotganini ko‘rsatadi.

Shu ma’noda, Prezidentimizning ta’lim va ilmga mehri hamda e’tiborini millatning intellektual kelajagiga qo‘yilayotgan poydevor sifatida anglash lozim. Chunki yangi O‘zbekistonning ilmli avlodi ulkan qiymatga ega inson kapitalidir.

Umummilliy harakat

Bilim olish faqat maktab yoki universitetning vazifasi emasligini tushunib turibmiz. U inson hayotining muayyan davrida emas, balki butun umr davom etadigan jarayon. Bugun tez o‘zgarayotgan dunyoda bir marta egallangan bilimning o‘zi kifoya qilmaydi. Yangi kasblar, yangi texnologiyalar, yangi ijtimoiy munosabatlar insondan muntazam o‘rganish, o‘z ustida ishlash va ko‘nikmalarini yangilab borishni talab etmoqda.

Aslida, bilimga ehtiyojning inson umri davomida saqlanishi taraqqiy etgan jamiyatning muhim belgilaridan. Shu ma’noda, ta’limning haqiqiy maqsadi insonni faqat bir kasbga tayyorlash emas, balki uni butun umr davomida o‘rganish va o‘zgarishga qodir shaxs sifatida shakllantirishdir.

Bugun bog‘cha va maktab yoshidagi bolalardan tortib, katta yoshdagilarga qadar turli avlod vakillarining ilm o‘rganish, yangi



kasb va zamonaviy ko‘nikmalarni egallashga intilayotgani bejiz emas. Bu intilishni mamlakatimizning eng chekka hududlarida ham ko‘rish mumkin.

Ta’til kunlarida Baxmal tumanidagi chekka qishloqlardan birida bo‘lganimda, yozning issiq kunlariga qaramay, yoshlarning xorijiy tillar, matematika kabi fanlar bo‘yicha tashkil etilgan to‘garaklarda kun davomida mashg‘ul bo‘lib, o‘z bilimi va ko‘nikmalarini oshirishga intilayotganiga guvoh bo‘ldim. Bu oddiy manzara emas, menimcha. Chunki bir vaqtlar qo‘shimcha ta’lim, xorijiy til yoki zamonaviy kasb o‘rganishga asosan yirik shaharlarga xos imkoniyat sifatida qaralgan bo‘lsa, bugun bunday ehtiyoj chekka qishloqlarda ham tobora kuchayib bormoqda.

Mazkur tendensiyani raqamlar aniq ko‘rsatib



turibdi. Xususan, 2025/2026-o‘quv yili boshida mamlakatda 551 ta nodavlat umumiy o‘rta ta’lim muassasasi faoliyat yuritgan. Nodavlat umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan o‘quvchilar soni 2016/2017-o‘quv yilidagi 5309 dan 2025/2026-o‘quv yilida 157 ming 471 nafarga yetdi. Bu qariyb 30 barobar o‘sish demakdir.

Shu ma’noda, yoshlarning shaxsiy rivojlanishga intilishini bugun bemalol umummilliy harakat deb atash mumkin. Zamonaviy til bilan aytganda, o‘z ustida ishlash, yangi til va kasb o‘rganish, zamonaviy ko‘nikmalarni egallash oddiy trenddan ko‘ra kengroq mazmun kasb etmoqda. Bu — yangi hayot tarzi, yangi tafakkur madaniyati, eng muhimi, inson o‘z kelajagini o‘zi yaratishi mumkinligiga ishonchning kuchayishi.

Mustahkam poydevor

Insonning bilim olishga munosabati, fikrlash qobiliyati va yangi ko‘nikmalarni o‘zlashtirish salohiyati poydevori aynan maktabgacha ta’lim davrida shakllana boshlaydi.

Binobarin, 6 yoshli tayyorlov guruhlariga bolalar qamrovini qisqa muddatda 100 foizga yetkazish vazifasining belgilanishi strategik ahamiyatga ega. Bunda xususiy bog‘chalar tashkil etish bo‘yicha imtiyozlarni saqlab qolish orqali ta’lim xizmatlarini kengaytirish va ota-onalar uchun tanlov imkoniyatini ta’minlash ham nazarda tutilmoqda. Bugun bolaning tayyorlov guruhida olgan ko‘nikmasi ertaga maktabdagi o‘zlashtirishiga, keyinchalik kasbiy tanlovi va uzoq istiqbolda mehnat bozoridagi raqobatbardoshligiga ta’sir qiladi. Asosiy mezon baribir olingan bilim sifati va uni hayotda qo‘llay olish qobiliyatidir.

2026-yil 8-sentabrda PISA — 2025 xalqaro baholash dasturi natijalari rasman e’lon qilindi. Unda 91 mamlakat va ta’lim tizimidan 760 mingdan ortiq 15 yoshli o‘quvchi ishtirok etdi. O‘zbekistondan xalqaro tanlov asosida 233 ta maktabda tahsil olayotgan 8652 nafar 15 yoshli o‘quvchi qamrab olindi. O‘zbekistonlik o‘quvchilar tabiiy fanlar bo‘yicha 438 ball to‘pladi. Bu 2022-yildagi 355 ballga nisbatan 83 balli o‘sish demakdir. 2025-yilda O‘zbekiston 91 mamlakat va ta’lim tizimi orasida 48-o‘rinni qayd etdi. IHTT ham 2022–2025-yillar oralig‘idagi 83 balli o‘sishni ishtirokchilar orasidagi eng katta o‘sishlardan biri sifatida qayd etgan.

Biroq PISA natijalari bizga oldimizda turgan vazifalarni ham ko‘rsatadi. Eng muhimi, Prezidentimiz ta’kidlaganidek, xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etish endi ayrim maktablar yoki alohida tadqiqotlar doirasidagi jarayon bo‘lib qolmaydi. Barcha maktablarni xalqaro baholash dasturlari bilan to‘liq qamrab olish vazifasi ta’lim sifatini baholashda yagona va xolis mezonlarni shakllantiradi.

> **Prezidentimiz yurtimizdagi texnikumlarda xalqaro ta’lim standartlarini joriy etish, yoshlarimizni yuqori daromadli kasblarga o‘qitishni yo‘lga qo‘yish va qamrovni 1 millionga yetkazish orqali yangi O‘zbekistonda kasb egallamagan birorta yigit-qiz qolmasligiga erishish vazifasini belgilab berdi. Buning zamirida yoshlarga hayotda o‘z o‘rnini topish imkoniyatini berish ezgu maqsadi mujassam.**

Tarixiy burilish ostonasida

Bugun insoniyat bir vaqtning o‘zida bir nechta ulkan xavf bilan yuzma-yuz turibdi. Iqlim o‘zgarishi, suv va oziq-ovqat xavfsizligi, energetika, kiberxavfsizlik, demografik jarayonlar, yangi texnologiyalar va sun’iy intellekt — bularning har biri nafaqat yangi yechimlarni, balki yangi bilim, yangi tafakkur va yangicha kasbiy ko‘nikmalarni talab etmoqda.

Ilgarigi bir avlod egallagan bilim keyingi avlod uchun yetarli tayanch bo‘lib xizmat qilgan bo‘lsa, bugun bilimning yaroqlilik muddati qisqarib bormoqda. Shu bois, zamonaviy inson uchun muntazam o‘rganish qobiliyati eng muhim ko‘nikmalardan biriga aylanmoqda.

Bugun insoniyat yana bir tarixiy burilish ostonasida turibdi. Sun’iy intellekt inson tafakkurining imkoniyatlarini raqamli muhitda kengaytirishga xizmat qilayotgan yangi vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. U axborotni izlash, tahlil qilish, tarjima, modellashtirish, dasturlash, ilmiy izlanish va ijodiy jarayonlarning ko‘plab bosqichlariga kirib kelmoqda.

Shu ma’noda, biz shartli ravishda sun’iy intellektgacha bo‘lgan va sun’iy intellekt keng qo‘llanayotgan davr o‘rtasidagi ulkan sivilizatsion o‘zgarish jarayonini boshdan kechirmoqdamiz. Ammo tarix bizga bir haqiqatni o‘rgatgan: texnologik inqilobning haqiqiy qiymati insonning undan qanday maqsadda foydalanishi bilan belgilanadi.

Prezidentimiz nutqida AT, sun’iy intellekt va kreativ iqtisodiyot kabi yo‘nalishlarni rivojlantirishga yangicha sur’at boshlangani ta’kidlandi. Ayni jarayon doirasida 10 million yoshni raqamli industriya va kelajak kasblariga olib kirish maqsadi ham ilgari surilmoqda. Bu o‘zgarib borayotgan mehnat bozori va kelajak kasblariga tayyorlash orqali yoshlarimizni global raqobat muhitidan munosib o‘rin egallashga tayyorlash demakdir. Zero, global raqobat tobora bilim, malaka, texnologiya va kreativlik salohiyati atrofida kechmoqda.

Bu jarayonda yoshlarning salohiyatini yangi g‘oyalarni yaratish va iqtisodiy qiymatga aylantirish ham muhim. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “Yoshlarimizning salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishda startap, venchur va sun’iy intellektni rivojlantirish ustuvor yo‘nalishga aylanadi”. Bu yondashuv yoshlarni kreativ iqtisodiyotning faol subyekti sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Bunday maqsadlar, o‘z navbatida, kelajak avlod ta’limi qanday bo‘lishi kerak degan muhim savolni kun tartibiga qo‘yadi. Menimcha, kelajak ta’limi, avvalo, moslashuvchan ko‘nikmalarni rivojlantirish, sun’iy intellektni ta’lim jarayoniga oqilona integratsiya qilish va insonning butun umr uzluksiz ta’lim olishini ta’minlash tamoyillariga tayanishi lozim. Chunki kelajak kasblarini bugungi ta’lim mezonlari bilan to‘liq belgilab bo‘lmaydi. Biz yoshlarga muayyan kasbdan ko‘ra, o‘zgarib borayotgan dunyoda yangi bilim va ko‘nikmalarni mustaqil egallash qobiliyatini berishimiz kerak.

Sun’iy intellekt ta’lim sohasiga jadal kirib kelayotgan bir paytda uning imkoniyatlaridan oqilona foydalanish bilan birga ehtimoliy xavflarni ham anglash muhim. PISA asoschilaridan biri Andreas Shleyxerning mulohazalariga ko‘ra, sun’iy intellektni ta’lim tizimiga mas’uliyatsiz joriy etish mustaqil tafakkur qilishga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun u ta’limda inson tafakkurining o‘rnini egallashi mumkin emas. Aksincha, odamning bilish, tahlil qilish va yaratish imkoniyatlarini kengaytiruvchi vosita sifatida qaralishi lozim. Demak, sun’iy intellekt davrida tanqidiy fikrlash intellektual xavfsizlikning muhim shartiga aylanishini aslo yoddan chiqarmasligimiz shart.

Nazariya va amaliyotni bog‘lovchi ko‘prik

Shu yil 28-sentabr kuni Prezidentimiz huzurida maktab ta’limida yangi avlod darsliklarini joriy etish hamda oliy ta’lim muassasalari va korxonalar hamkorligida dual ta’limni kengaytirish bo‘yicha taqdimot o‘tkazildi. Unda ta’lim standarti, o‘quv dasturi, darslik va baholash tizimini uzviy bog‘liq holda shakllantirish, darsliklarda o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, muloqot, hamkorlik va ijodkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga e’tibor qaratish belgilandi. Shuningdek, uchinchi va to‘rtinchi bosqich talabalarining kamida 80 foizini, ya’ni 185 ming yoshni dual ta’limga qamrab olish, 2027/2028-o‘quv yilida 75 oliygoh va 3500 korxonani jalb etish rejalashtirilmoqda. Bunda talabalarga to‘langan ish haqining 50 foizini subsidiya qilish, korxonalarga bojxona va amortizatsiya bo‘yicha imtiyozlar berish, 25 nafardan ortiq talabani amaliyotga qabul qilgan korxonalarga davlat xaridlarida preferensiyalar qo‘llash ko‘zda tutilmoqda. Mazkur yondashuvlar ta’lim va amaliyotning uzviyligini ta’minlab, yoshlarni zamonaviy bilim va kasbiy ko‘nikmalarga ega raqobatbardosh kadrlar etib tayyorlashga xizmat qiladi.

Bilim kapitalga aylanishi uchun nazariya bilan amaliyot tutashishi kerak. Shu nuqtai nazardan, dual ta’limning ahamiyati katta. Unda ta’lim muassasasida olingan nazariy bilim ish joyidagi amaliy tajriba bilan uyg‘unlashadi. Yoshlar kasbni faqat kitobdan o‘rganmaydi, aksincha, uning mohiyatini ish jarayonida anglaydi, jamoaga moslashadi, mas’uliyatni his qiladi va o‘z mehnatining natijasini ko‘radi. Shu ma’noda, zamonaviy ta’limning muhim vazifalaridan biri nazariya bilan amaliyot o‘rtasida mustahkam ko‘prik yaratish, bilimni real hayotda qo‘llashga o‘rgatishdan iborat.

Bugun mamlakatimizdagi 595 texnikumda 329 kasb va mutaxassislik bo‘yicha 437,8 ming yosh ta’lim olmoqda. Ularning 67,4 mingi 17 mingdan ortiq ish beruvchi bilan hamkorlikda dual ta’limga jalb etilgan.

Prezidentimiz yurtimizdagi texnikumlarda xalqaro ta’lim standartlarini joriy etish, yoshlarimizni yuqori daromadli kasblarga o‘qitishni yo‘lga qo‘yish va qamrovni 1 millionga yetkazish orqali yangi O‘zbekistonda kasb egallamagan birorta yigit-qiz qolmasligiga erishish vazifasini belgilab berdi. Buning zamirida yoshlarga hayotda o‘z o‘rnini topish imkoniyatini berish ezgu maqsadi mujassam. Ayniqsa, texnikumlarda xalqaro ta’lim standartlarining joriy etilishi kasbiy ta’lim oldiga yangi talablarni qo‘yadi.

Shuningdek, Prezidentimiz tashabbusi bilan yo‘lga qo‘yilgan “Ikkinchi imkon” loyihasi insonparvar yondashuvning amaliy ifodasidir. Unda jazoni ijro etish muassasalarida jazo muddatini o‘tayotgan yoshlarning ijtimoiy hayotga tez moslashishini ta’minlash maqsadida zamonaviy kasb va ko‘nikmalarga ega bo‘lishga qaratilgan kompleks yondashuv nazarda tutilgan.

Yaqinda Qashqadaryo viloyatidagi yopiq muassasalarga milliy preventiv mexanizm doirasida Ombudsman huzuridagi jamoatchilik guruhlari bilan monitoring tashriflari davomida ushbu loyihaning tom ma’nodagi inson qadri loyihasiga aylanib borayotganiga guvoh bo‘ldik.

Eng muhimi, bu yerda yoshlarga shunchaki bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish yoki biror hunarni o‘rgatish emas, zamonaviy hayot va mehnat bozorida o‘z o‘rnini topish uchun zarur bo‘lgan yangi bilim va ko‘nikmalarni egallash imkoniyati yaratilmoqda. Ular AT, raqamli ko‘nikmalar, xorijiy tillar va mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan boshqa zamonaviy kasb hamda mutaxassisliklarni o‘rganib, yangi hayot yo‘lini qurishga tayyorgarlik ko‘rmoqda.

Bu juda muhim. Chunki jinoyat yo‘liga qayta kirib qolmasligi uchun ularning hayotda o‘z o‘rnini topishi, qonuniy mehnat orqali o‘z kelajagini qurishi va jamiyatda munosib o‘rin egallashi nihoyatda dolzarb. Buning uchun esa insonga faqat ozodlikning o‘zi emas, yangi hayot qurish uchun zarur bilim, kasb, ko‘nikma va ishonch ham kerak.

Shu ma’noda, “Ikkinchi imkon”ning eng katta qiymati insonga faqat kechagi kunidan voz kechishni emas, balki ertangi kunga tayyorgarlik ko‘rish imkoni berilishidadir. Kasb egallayotgan, AT va raqamli texnologiyalarni o‘zlashtirayotgan, xorijiy til o‘rganayotgan yosh o‘z kelajagini kutib o‘tirmaydi. Uning uchun zarur bo‘lgan salohiyatni bugundan shakllantiradi.

Prezidentimiz ilgari surayotgan “Hech kim o‘z muammolari bilan yolg‘iz qolmasligi kerak” degan ulug‘vor g‘oyaning mohiyati ham shunda. Insonni faqat qilgan xatosi bilan emas, uning o‘zgarish, o‘rganish, mehnat qilish va jamiyatga foyda keltirish salohiyati bilan ham ko‘ra bilish inson qadrini ulug‘lashning yuksak ifodasidir.

Umuman olganda, kasb-hunarni egallashga rag‘bat inson hayotida o‘z qobiliyatini anglash va uni ijtimoiy-iqtisodiy qiymatga aylantirishga xizmat qilmoqda. Har bir yosh o‘z iste’dodi va qiziqishini kashf etishi, uni muayyan kasbiy mahoratga aylantirishi va o‘z mehnati orqali munosib hayot qurishi uchun zarur sharoitga ega bo‘lishi kerak.

2026-yil 7-oktabr, 207-son

Qo‘shma loyihalar orqali olimlar yangi metodikalarni o‘zlashtiradi, laboratoriya bazasi mustahkamlanadi, yosh tadqiqotchilar xalqaro ilmiy muhitga kirib boradi. Bu esa milliy agrar ilm-fanning raqobatbardoshligini ta’minlashga xizmat qiladi.

YANGI O‘ZBEKISTON

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news



Agrotarmoq

AGRAR ILM-FAN VA INNOVATSION FAOLIYAT barqaror taraqqiyotning eng muhim talabi

Alisher SHUKUROV,
qishloq xo‘jaligi vaziri o‘rinbosari,

Akmal SHAMSIYEV,
vazirlik boshqarma boshlig‘i

Boshlanishi 1-betda

Akademik maktablar

Agrar sohada ilmiy muassasalar faoliyatini takomillashtirish, zamonaviy laboratoriyalar tashkil etish va xalqaro hamkorlikni kengaytirishga alohida e’tibor berilmoqda. Ilmiy tadqiqotlarda iqlim o‘zgarishiga chidamli yangi nav va duragaylarni yaratish, suv va resurs tejamkor texnologiyalarni keng joriy qilish, tuproq unumdorligini saqlash va oshirish, agrobiotexnologiya hamda seleksiya ishlarini takomillashtirish, o‘simliklar va hayvonlar kasalliklariga qarshi innovatsion yechimlarni ishlab chiqish, raqamli qishloq xo‘jaligi texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etish asosiy vazifalardan hisoblanadi.

So‘nggi yillarda kuzatilayotgan iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish, aholining oziq-ovqatga talabini qondirish, agrar sohada ilm-fanning o‘rnini yuksaltirish hamda innovatsion faoliyatni boshqarish va tartibga solishning yagona tizimini yaratish maqsadida O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi fanlari akademiyasi tashkil etildi. Akademiya atrofida ilmiy muassasalar, oliy ta’lim tashkilotlari va ishlab chiqarish subyektlarini birlashtirish, tadqiqot natijalarini amaliyotga yaqinlashtirish uchun yangi imkoniyatlar shakllanmoqda.

Akademiya huzurida “ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarish” integratsiyasini mustahkamlash, ilmiy tadqiqot ishlariga iqtidorli yoshlarni keng jalb etish, akademik ilmiy maktablarni rivojlantirish va yuqori malakali ilmiy kadrlarni tayyorlash bo‘yicha “akademik maktablar” faoliyati yo‘lga qo‘yilmoqda. Buning asosiy maqsadi qishloq xo‘jaligi uchun yuqori salohiyatga ega mutaxassislarni tayyorlashning uzluksiz va samarali tizimini shakllantirish, oliy ta’limda tahsil olayotgan iqtidorli talabalarni o‘qish davridan boshlab “ustoz-shogird” tamoyili asosida ilmiy tadqiqot ishlariga jalb etishdan iborat.

Paxtachilik ilm-fani mutlaqo yangi innovatsion bosqich sari odimlamoqda. Ilk bor xorijiy g‘o‘za navlari sinovlarining samarali natijalari asosida ko‘sak qurti va gerbitsidga bardoshlilik xususiyatlarini mahalliy navlarga qisqa muddatlarda o‘tkazish bo‘yicha biotexnologik tadqiqotlar yo‘lga qo‘yildi. Chatishtirish orqali olingan F1 duragaylarda fitotron issiqxona majmuida ikkinchi marta bekkross chatishtirish ishlari amalga oshirilmoqda.

Bunday izlanishlar natijasida ishlab chiqarishga yangi genetik asosga ega, yuqori hosildorligi 60-70 sentnergacha, tezpisharligi 110-115 kun, tola chiqimi 40 foizdan yuqori bo‘lgan, sifati baland, ko‘sak qurti va glifosatga bardoshli, viltga chidamli tizma hamda navlarni joriy etish imkoniyati kengaymoqda. Bu esa paxta xomashyosi hosildorligini 15-20 sentner, tola chiqimini 3-5 foiz oshirish, begona o‘tlarga qarshi kurashda qo‘l mehnatini kamaytirish va ko‘sak qurtiga qarshi kimyoviy kurash choralarini qisqartirishga xizmat qiladi.

Shinjon usuli

Xitoyning Shinjon usuli, asosan, qo‘shqator ekish, plyonka ostida yetishtirish, tomchilatib sug‘orish va yuqori ko‘chat qalinligiga asoslangan agrotexnologik kompleksdir. O‘zbekistonda bu usulni mahalliy tuproq-iqlim sharoitlariga moslashtirish bo‘yicha o‘tgan yili tajriba tariqasida 100 ming gektar maydonga chigit ekildi. Ayrim xo‘jaliklarda mazkur texnologiya asosida 70-80 sentnergacha hosil olindi. Joriy yilda esa 305 ming gektar maydonda Shinjon usulida paxta parvarishlandi.

Mazkur texnologiya O‘zbekiston sharoitida faqat xorijiy emas, balki mahalliy g‘o‘za navlarini ham yuqori samarali intensiv agrotexnologiya asosida yetishtirish imkoniyati borligini ko‘rsatmoqda. Uning ilmiy asosi g‘o‘za o‘simligining oziqlanish maydoni, ko‘chat qalinligi, suv va issiqlik rejimini optimallashtirishga qaratilgan.

Texnologiyada asosan 76×10 santimetr qo‘shqator ekish sxemasi, gektariga 220-240 ming tup ko‘chat qalinligi, plyonka ostida yetishtirish va tomchilatib sug‘orish kabi usullar qo‘llanadi. Qo‘shqator va yuqori ko‘chat qalinligi dala birligiga to‘g‘ri keladigan hosil elementlari sonini oshiradi. Plyonka tuproq namligini saqlash, harorat rejimini yaxshilash va dastlabki rivojlanishni tezlashtirish imkonini beradi. Tomchilatib sug‘orish esa suv va mineral ozuqalarni o‘simlikning ildiziga aniq yetkazish orqali suvdan foydalanish samaradorligini oshiradi.

Shu bilan birga, O‘zbekistonning turli tuproq-iqlim sharoitlarida nav, ko‘chat qalinligi, sug‘orish va o‘g‘itlash me’yori, etafon qo‘llash, defoliatsiya, desikatsiya va hosildorlik o‘rtasidagi maqbul nisbatlarni aniqlash, o‘simlikning o‘suv davrini boshqarish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar o‘tkazilmoqda. Ilmiy yondashuvlar yangi texnologiyani mahalliy sharoitga moslashtirish, hosildorlikni baholash va iqtisodiy samarani oshirish imkonini yaratadi.

G‘allachilikda tezkor seleksiya

Kuzgi bug‘doy va dukkakli don ekinlari seleksiyasi sohasida Speed Breeding texnologiyasini qo‘llash natijasida yorug‘lik rejimi, harorat, namlik va boshqa muhit omillarini sun’iy boshqarish orqali o‘simliklarning o‘sish va rivojlanish davrini bir necha barobar qisqartirish, bir yilda bir necha marta avlod olish imkoniyati yaratilmoqda. An’anaviy seleksiyaga nisbatan yangi navlarni yaratish muddati 5-6 yilgacha qisqarishi mumkin.

Genom tahrirlash yo‘nalishida CRISPR/Cas9 usulida molekulyar-genetik tadqiqotlar yo‘lga qo‘yildi. Bug‘doy, arpa, makkajo‘xori, kungaboqar va pomidorda salbiy genotiplarni erta brakka chiqarish, funksional genlar orqali kasalliklar va abiotik stresslarga chidamlilikni oshirish, don sifati va hosildorlikni yaxshilash bo‘yicha izlanishlar qilinmoqda.

Janubiy dehqonchilik ilmiy-tadqiqot institutida Pokistonning Faysilobod qishloq xo‘jaligi universiteti bilan hamkorlikda gibrid bug‘doy liniyalari sinovdan o‘tkazilmoqda. Gibrid bug‘doy urug‘chiligini yo‘lga qo‘yish, steril onalik formalarini tayyorlash va mahalliy otalik navlarni tanlash bo‘yicha tadqiqotlar davom etmoqda. Sinovlarda gibrid bug‘doyning hosildorligi 10 tonnagacha bo‘lib, sariq zang kasalligiga chidamliligi qayd etilmoqda.

Bu yo‘nalishlarning ahamiyati shundaki, g‘allachilikda hosildorlik bilan bir qatorda don sifati, kasalliklarga chidamlilik, sho‘rlanish, qurg‘oqchilikka moslashuv va urug‘lik materialining barqarorligi ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ilmiy seleksiya oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda uzoq muddatli kafolat vazifasini bajaradi.



> **Texnologiyada asosan 76×10 santimetr qo‘shqator ekish sxemasi, gektariga 220-240 ming tup ko‘chat qalinligi, plyonka ostida yetishtirish va tomchilatib sug‘orish kabi usullar qo‘llanadi. Qo‘shqator va yuqori ko‘chat qalinligi dala birligiga to‘g‘ri keladigan hosil elementlari sonini oshiradi. Plyonka tuproq namligini saqlash, harorat rejimini yaxshilash va dastlabki rivojlanishni tezlashtirish imkonini beradi.**

Suv ustida sholi yetishtirilmoqda

Bir vaqtning o‘zida ham baliq, ham sholi yetishtirishga qaratilgan suv yuzasida sholi o‘stirish texnologiyasi Farg‘ona, Toshkent va Namangan viloyatlari sharoitida sinovdan o‘tkazilmoqda. Bunda mavjud suv havzalaridan samarali foydalanish, agrotexnik tadbirlar xarajatlarini kamaytirish, ekologik toza mahsulot yetishtirish va bir gektar hisobida qo‘shimcha 5,5 tonna sholi hosili olish imkoniyati yaratiladi. Tadqiqotlarda sholi doni ishlash imkoniyati va eksport salohiyati ham ortadi.

Mevachilikda in-vitro laboratoriyalarida danak mevalilardan shaftoli, o‘rik va olxo‘ri uchun “Fortuna” hamda “Best-1” payvandtaglarini ko‘paytirish, laboratoriya sharoitida onalik materiallarini tayyorlash yo‘lga qo‘yilgan. Bu texnologiya sog‘lom ko‘chat materialini ko‘paytirish, kasalliklar tarqalishining oldini olish va intensiv bog‘dorchilik uchun sifatli ko‘chat bazasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Yagona zanjir

Ilmiy muassasalar, oliy ta’lim tashkilotlari va ishlab chiqarish korxonalari o‘rtasidagi hamkorlik mustahkamlanishi innovatsion g‘oyalarni amaliyotga tezroq joriy etish imkonini bermoqda. Toshkent davlat agrar universitetida talabalarning paxtachilik va g‘allachilik bo‘yicha bilimlarini mustahkamlash, ularni kasbiy faoliyatga tayyorlash hamda yangi agrotexnologiyalar asosida paxta va g‘alla yetishtirish ko‘nikmasiga ega bo‘lgan agronomlarni tayyorlash va “ustoz-shogird” tizimini joriy etishga e’tibor qaratilmoqda.

Zamonaviy agronom endi faqat ekinni parvarish qilish qoidalarini biladigan mutaxassis emas. U tuproq tahlilini o‘qiy olishi, suv sarfini hisoblashi, dron orqali olingan ma’lumotlarni tahlil qilishi, o‘simlik kasalliklarini erta aniqlashi, agrotexnologiyaning iqtisodiy samarasini baholay olishi kerak. Shu bois, ta’lim jarayonida nazariy bilim bilan birga laboratoriya, tajriba maydoni va ishlab chiqarish amaliyotining uyg‘unligi muhim.

Qishloq xo‘jaligi sohasini barqaror rivojlantirish uchun agronom mutaxassislarga suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalari, zamonaviy qishloq xo‘jaligi texnikasi hamda uchuvchisiz uchish apparatlaridan foydalangan holda paxta va g‘alla yetishtirish o‘rgatilmoqda. Bu kabi yondashuvlar yosh kadrlarni mehnat bozori talablariga mos tayyorlash bilan birga ilm-fan natijalarining ishlab chiqarishga kirib borishini tezlashtiradi.

Raqamli qishloq xo‘jaligi

Agrar sohada raqamlashtirish jarayonlari jadal sur’atlarda rivojlanmoqda. Geoaxborot tizimlari, masofadan turib monitoring qilish, dronlar, sun’iy intellekt elementlari, avtomatlashtirilgan sug‘orish tizimlari va sensor texnologiyalari yer hamda suv resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatini kengaytirmoqda.

Bu texnologiyalar ekinlar holatini tezkor baholash, monitoring qilish, hosildorlikni prognozlash, mineral o‘g‘itlar va suv sarfini optimallashtirish hamda ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga xizmat qilmoqda. Ilmiy yondashuv bilan raqamli vositalar birlashganda, fermer qarorni taxminga emas, aniq ma’lumotga asoslanib qabul qiladi.

Qishloq xo‘jaligi vazirligi tizimida “Dron service” korxonasi tashkil etildi. Respublikaga olib kelinayotgan uchuvchisiz apparatlar bilan ushbu xizmat orqali o‘simliklarni o‘suv davrida oziqlantirish, kasallik va zararkunandalarga qarshi kurash, defoliatsiya kabi agrotexnik tadbirlar ilmiy asosda bajarilyapti.

Agrar sohada innovatsiyalarning samaradorligi ularning ishlab chiqarishga joriy etilishi bilan belgilanadi. Shu maqsadda startap loyihalarni qo‘llab-quvvatlash, innovatsion grantlar ajratish, agrotexnologik parklar va innovatsiya markazlari faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha qator tashabbuslar amalga oshirilmoqda.

Xitoyning Yanlin qishloq xo‘jaligida yuqori texnologiyalar demonstratsion hududi tajribasi asosida O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi fanlari akademiyasi huzurida O‘zbekiston — Xitoy qishloq xo‘jaligida yuqori texnologiyalar agrotexnoparki tashkil etildi. Agrotexnoparkda yangi yuqori avlodli urug‘, nav va duragaylarni yaratish, sinash, intensiv bog‘dorchilik va uzumchilik, sabzavot ekinlari, manzarali bog‘dorchilik, gulchilik, issiqxonalar, chorvachilik, parrandachilik, asalarichilik va baliqchilik bo‘yicha demonstratsion hududlar barpo etiladi.

Bunday maydonchalarning ahamiyati shundaki, fermer yoki tadbirkor yangi texnologiyani faqat nazariy emas, balki amaldagi natija orqali baholaydi. Ilmiy ishlanma tajriba maydonida sinovdan o‘tadi, iqtisodiy samarasi hisoblanadi, keyin esa ishlab chiqarishga keng joriy etiladi. Shu tariqa laboratoriyadagi g‘oyadan bozordagi mahsulotgacha bo‘lgan zanjir shakllanadi.



Xalqaro hamkorlik

O‘zbekiston agrar sohada dunyoning yetakchi ilmiy markazlari, xalqaro tashkilotlar va rivojlanish institutlari bilan hamkorlikni kengaytirmoqda. Bu hamkorlik ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish, qo‘shma tadqiqotlar o‘tkazish, olimlar malakasini oshirish va innovatsion loyihalarni ro‘yobga chiqarish uchun mustahkam zamin yaratmoqda.

Yurtimiz sharoitida noan’anaviy sabzavot ekinlarini introduksiya qilish va mahalliy sharoitga iqlimlashtirish bo‘yicha Janubiy Koreyaning AFASI tashkiloti, Xitoy sholichilik ilmiy-tadqiqot instituti, Filippin xalqaro sholichilik instituti (IRRI), Vyetnam dala ekinlari ilmiy-tadqiqot instituti, Malayziyaning MARDI tashkiloti bilan sholichilikda innovatsion texnologiyalarni joriy etish, Gruziya ilmiy-tadqiqot markazi bilan uzum ko‘chatchiligi, Belarus Bog‘dorchilik instituti bilan rezavor ekinlarni yetishtirish sohalarida hamkorlikda ilmiy tadqiqotlar qilinmoqda.

Xalqaro hamkorlikning yana bir muhim jihati — mahalliy ilmiy maktablar salohiyatini oshirishdir. Qo‘shma loyihalar orqali olimlar yangi metodikalarni o‘zlashtiradi, laboratoriya bazasi mustahkamlanadi, yosh tadqiqotchilar xalqaro ilmiy muhitga kirib boradi. Bu esa milliy agrar ilm-fanning raqobatbardoshligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Agrar ilm-fan va innovatsiyalar mamlakat qishloq xo‘jaligini yangi bosqichga olib chiqishning eng muhim omillaridan biridir. Vazirlik tizimidagi 22 ta ilmiy-tadqiqot institutida o‘tgan yil yakuni bo‘yicha soha olimlari tomonidan qishloq xo‘jaligi ekinlarining 60 taga yaqin yangi nav va duragayi yaratildi. Ularning 40 ta navi ishlab chiqarishga joriy qilindi, 26 ta nav davlat reyestriga kiritildi. Umumiy qiymati 26,3 milliard so‘m bo‘lgan 39 ta ilmiy loyiha tijoratlashtirildi.

Sohaga oid ilmiy tajriba va eksperimental tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirish, aholi bandligini ta’minlash va daromadini oshirishga qaratilgan, vazirlik tomonidan moliyalashtirilgan, xonadonbay usulda bajariladigan 13 ta ilmiy tadqiqot loyihasi amalga oshirilmoqda. Bunday loyihalar ilm-fan natijalarini kichik xo‘jaliklar, tomorqalar va oilaviy tadbirkorlikka olib kirish nuqtai nazaridan ham ahamiyatlidir.

Xulosa

Bugun O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida ilm-fanning o‘rni tobora kengaymoqda. Yangi navlar yaratish, genetik tadqiqotlarni rivojlantirish, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish, raqamli monitoringni yo‘lga qo‘yish, ilmiy kadrlar tayyorlash va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish — bularning barchasi bir maqsadga, ya’ni samarali, raqobatbardosh va barqaror agrar tizimni shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Agrar ilm-fanning haqiqiy qiymati uning natijasi dalada namoyon bo‘lganida ko‘rinadi. Yangi nav fermerga yuqori hosil bersa, suv tejovchi texnologiya xarajatni kamaytirsa, raqamli vosita kasallikni erta aniqlasa, ilmiy ishlanma aholi daromadini oshirsa, ilm-fan o‘z vazifasini bajargan bo‘ladi. Shuning uchun ilmiy tadqiqotlarni ishlab chiqarish bilan uzviy bog‘lash, innovatsiyalarni ommalashtirish va tijoratlashtirish taraqqiyotning muhim shartidir.

Kelgusida ilm-fan, innovatsiya va ishlab chiqarish integratsiyasini yanada kuchaytirish orqali mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, eksport hajmini oshirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va aholi farovonligini yuksaltirish bo‘yicha muhim natijalarga erishish mumkin. Bu jarayonda olim, agronom, fermer, tadbirkor va yosh mutaxassisning hamkorligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.



> **O‘zbekistonning turli tuproq-iqlim sharoitlarida nav, ko‘chat qalinligi, sug‘orish va o‘g‘itlash me’yori, etafon qo‘llash, defoliatsiya, desikatsiya va hosildorlik o‘rtasidagi maqbul nisbatlarni aniqlash, o‘simlikning o‘suv davrini boshqarish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar o‘tkazilmoqda.**

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official

2026-yil 7-oktabr, 207-son

Islohot odimlari

Zamonaviy maktabda o‘quvchi nafaqat muayyan bilimlarni o‘zlashtirishi, balki mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashishi, axborot bilan ishlashi hamda olgan bilimlarini turli hayotiy vaziyatlarda qo‘llashi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yuqori natijalarga erishish esa, o‘z navbatida, ta’lim mazmuni va o‘quv dasturlari bilan birga jarayonni bevosita amaliyotga tatbiq etadigan pedagogning kasbiy tayyorgarligi va mahoratiga bog‘liq. Shu ma’noda, bugun pedagog kadrlar tayyorlashga shunchaki diplom berish marosimi emas, balki zamonaviy maktab uchun zarur kasbiy kompetensiyalar, moslashuvchan ko‘nikmalar va yuqori mas’uliyatga ega mutaxassisni shakllantirish jarayoni sifatida qaralmoqda.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

BUGUNNING PEDAGOGI: AUDITORIYADAN KASBGACHA BO‘LGAN YO‘L



Ikromjon RAHIMOV,
Nizomiy Ganjaviy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti o‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari

Prezidentimiz huzurida shu yil 28-sentabr kuni ta’lim sohasidagi islohotlarning navbatdagi vazifalariga bag‘ishlab o‘tkazilgan taqdimotda ham maktab ta’limi mazmunini yangilash, yangi avlod darsliklarini joriy etish, pedagoglarni tayyorlash va malakasini oshirish, shuningdek, oliygohlar va korxonalar, tashkilotlar hamkorligida dual ta’limni samarali tashkil etish kabi qator muhim masalalar atroflicha muhokama qilindi.

Ushbu vazifalarning har biri ta’lim sifatiga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi. Biroq ularning umumiy amaliy samarasi, avvalo, yangilangan ta’lim mazmunini maktab auditoriyasi va sinfxonaga mahorat bilan tatbiq eta oladigan yangi avlod pedagoglarini tayyorlash darajasi bilan belgilanadi. Chunki maktabdagi ta’lim natijasi faqat darslikda nima yozilgani yoki dasturda qanday mavzular belgilangani bilan emas, balki pedagog shu mazmunni o‘quvchiga qanday yetkazishi va uning fikrlash qobiliyatini qay darajada rivojlantira olishi bilan belgilanadi.

Zamonaviy ta’lim oldida turgan asosiy vazifalardan biri o‘quvchiga faqat axborot va tayyor qoidalarni singdirish bilan cheklanmaydi. Unda mustaqil fikrlash, ijodkorlik, axborotni tahlil qilish va farqlash, muloqot qilish hamda o‘z qarorini asoslab bera olish ko‘nikmalarini shakllantirish ustuvor o‘ringa chiqmoqda. Bunday zamonaviy yondashuv darslik mazmunidan tortib, darsni tashkil etish va o‘quvchi bilimini baholashgacha bo‘lgan butun majmuani qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. Biroq eng mukammal yangi darslik ham ta’lim natijasini avtomatik ravishda o‘zgartirib qo‘ymaydi. Undagi topshiriqlar, savollar va amaliy topshiriqlarni o‘qituvchining darsda qanday qo‘llashi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Masalan, tayyor qoida yoki formuladagi bilimni yodlatish bilan o‘quvchini shu qoidani mustaqil kashf etish va turli vaziyatlarda qo‘llashga yo‘naltirish o‘rtasida farq bor. Birinchi holatda asosiy e’tibor ma’lumotni shunchaki o‘zlashtirishga qaratilsa, ikkinchi holatda bilimni anglash, tahlil qilish va amalda qo‘llash muhiti vujudga keltiriladi. Demak, ta’lim mazmuni va dasturlari yangilanayotgan bir sharoitda pedagogning darsni rejalashtirish, o‘quvchini faollashtirish va uning rivojlanish dinamikasini tahlil qilishga oid metodik ko‘nikmalari ham aynan ushbu islohotlar sur’atiga mos ravishda rivojlanishi kerak.



Bugungi maktabga qanday o‘qituvchi kerak? Bu savolga faqat “oliy ma’lumotli mutaxassis” degan an’anaviy javob yetarli emas. Zamonaviy pedagog o‘z fanini chuqur bilishi bilan birga bolaning yosh va individual psixologik xususiyatlarini tushunishi, darsni aniq maqsadga yo‘naltirgan holda tashkil etishi, raqamli vositalardan unumli foydalanishi va faoliyatini doim tanqidiy tahlil qila olishi lozim.

Shu nuqtai nazardan, pedagog kadrlar tayyorlash tizimiga yondashuvda ham markaziy savol o‘zgarmoqda. Endi gap faqat talaba qaysi fanlarni o‘rgangani, qanday imtihon topshirgani yoki qanday diplom olgani haqida emas. Eng muhim va yagona mezon u kasbiy pedagogik faoliyatni mustaqil va sifatli bajarishga qay darajada tayyor ekanidir.

Bo‘lajak o‘qituvchi darsni zamonaviy standartlar asosida rejalashtira oladimi? Sinfdagi o‘quvchilarning turlicha bilim darajasi va ehtiyojlarini farqlay oladimi? O‘zlashtirishdagi qiyinchiliklarni o‘z vaqtida aniqlab, ularni bartaraf etishning metodik yo‘llarini taklif eta oladimi? Nazariy bilimlarni real sinfxona vaziyatida qo‘llay oladimi?

Pedagogik ta’lim dasturlarini takomillashtirishda aynan ushbu savollar asosiy vazifa sifatida qo‘yilishi kerak. Prezidentimizning 2025-yil 28-apreldagi “Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida pedagog kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, pedagogik ta’lim dasturlarini xalqaro tajriba va standartlar asosida yangilash kabi muhim vazifalar belgilangani aynan shu yo‘nalishdagi islohotlar tizimli tus olayotganidan dalolat beradi.

Pedagogik ta’lim dasturlarini xalqaro tajribaga moslashtirish haqida so‘z ketsa, uni xorijiy adabiyotlarni o‘quv rejasiga kiritish yoki chet tilida dars o‘tish bilan cheklab bo‘lmaydi. Xalqaro tajribaning asosiy qimmati va ahamiyati ta’lim natijalarini to‘g‘ri belgilash, pedagogik kompetensiyalarni bosqichma-bosqich rivojlantirish va ularni xolis baholashning samarali usullarini o‘rganishdadir. Masalan, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muloqot va jamoada hamkorlikda ishlash ko‘nikmalari bugungi ta’limning o‘zagini tashkil etmoqda. Bunday ko‘nikmalarni o‘quvchida shakllantirish uchun pedagogning o‘zi, avvalo, ularni rivojlantiruvchi metodlarni a’lo darajada egallagan bo‘lishi zarur.

Pedagog kadrlar tayyorlashda nazariya va amaliyot o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlash strategik ahamiyatga ega. Chunki haqiqiy pedagogik mahorat ma’ruza tinglash yoki metodik qo‘llanmalarni o‘qish orqali shakllanmaydi.

Shu jihatdan dual ta’lim tizimining o‘rni juda katta. U oliy ta’lim muassasasidagi nazariy tayyorgarlikni bevosita bo‘lajak ish joyidagi amaliy faoliyat bilan jipslashtiradi.

2026/2027-o‘quv yilidan boshlab maktabgacha ta’lim sohasida faoliyat yuritayotgan o‘rta maxsus ma’lumotli pedagoglar uchun “5+1” modeli asosida bakalavrlar tayyorlashni yo‘lga qo‘yish ham aynan ushbu zamonaviy yondashuvning amaliy ifodasidir. Mazkur modelda talaba besh kun bevosita ta’lim tashkilotida amaliy faoliyat yuritadi. Bir kun esa pedagogika oliy ta’lim tashkilotida nazariy va metodik bilimlarni chuqurlashtiradi. Bu yerda eng muhim jihat talabaning amaliyotda bo‘lgan vaqti hajmi emas, balki shu vaqtda u nechog‘liq sifatli kasbiy tajriba va ko‘nikma orttirganidir. Talaba auditoriyada bola psixologiyasi yoki baholash usullarini o‘rgansa, ish joyida ularning real hayotda qanday namoyon bo‘lishini kuzatadi hamda amalda qo‘llaydi.

Dual ta’limning asosiy mohiyati — oliy ta’lim tashkiloti va ish beruvchining alohida-alohida emas, balki yagona kasbiy tayyorgarlik jarayonining teng huquqli va mas’uliyatli ishtirokchilari sifatida harakat qilishida.

Prezidentimiz huzuridagi taqdimotda ta’lim jarayonida videodarslar, animatsiyalar, audiomateriallar va interaktiv topshiriqlardan foydalanish masalalariga alohida to‘xtalib o‘tildi. Bunday raqamli vositalar ta’lim mazmunini ko‘rgazmali va tushunarli yetkazish, o‘quvchining darsga qiziqishini oshirish imkonini beradi.

Biroq raqamli resurslar va platformalarning mavjudligi o‘zidan-o‘zi ta’lim sifati oshishini kafolatlamaydi. Asosiy masala pedagog ushbu resurslardan qanday maqsadda va qay darajada metodik savodxonlik bilan foydalanishidadir. Masalan, aniq fanlar bo‘yicha raqamli vosita formula yoki chizmani ekranda namoyish etish bilan cheklanmay, o‘quvchiga murakkab qonuniyatlarni tushunish va turli muqobil yechimlarni taqqoslashga xizmat qilishi kerak. Demak, raqamlashtirishning eng muhim omili kompyuter yoki platforma emas, balki pedagogning raqamli kompetensiyasi. Shu sababli raqamli pedagogikani alohida fan sifatida emas, balki barcha fanni o‘qitish metodikasining ajralmas qismiga aylantirish zarur. Bunda sun’iy intellekt vositalaridan mas’uliyatli foydalanish, axborotning ishonchliligini tekshirish va raqamli xavfsizlik qoidalariga rioya etish ham o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi tarkibiga kiradi.

Ta’limdagi o‘zgarishlarning yana bir ustuvor yo‘nalishi o‘quvchilar bilimini baholash usullarini modernizatsiya qilishdir. Agar o‘quvchidan mustaqil fikrlash va bilimni amalda qo‘llash talab etilsa-yu, baholash faqat faktik ma’lumotlarni yoddan aytib berish orqali amalga oshirilsa, o‘qitish maqsadi va natijasi o‘rtasida nomutanosiblik yuzaga keladi.

Pedagogning kasbiy rivojlanishini baholashda ham faqat test natijalari yoki malaka oshirish kurslari sertifikati bilan cheklanmaslik lozim. Fanni bilish va boshqalarga samarali o‘rgata olish — o‘zaro bog‘liq, ammo boshqa-boshqa pedagogik ko‘nikmalar. Pedagogning darsni tashkil etish mahorati, o‘quvchilar bilan muloqot o‘rnatishi va real ta’lim natijalari asosiy mezonga aylanishi darkor.

Yangi avlod darsliklari, pedagoglar malakasini oshirish, xalqaro tajribaga asoslangan dasturlar, dual ta’lim, raqamlashtirish va baholash tizimini takomillashtirish — bularning barchasi yagona tizimning qismlari. Ular alohida-alohida emas, balki bir-birini to‘ldirgan holda amalga oshirilganda kutilgan yuqori samarani beradi.

Ta’lim islohotlarining pirovard natijasi bajarilgan tadbirlar soni bilan emas, balki maktabga kirib borayotgan yangi avlod pedagoglarining kasbiy darajasi hamda ular tarbiyalayotgan, mustaqil va tanqidiy fikrlaydigan o‘quvchilarning bilimi, hayotga tayyorgarlik darajasi bilan o‘lchanadi.

> **2026/2027-o‘quv yilidan boshlab maktabgacha ta’lim sohasida faoliyat yuritayotgan o‘rta maxsus ma’lumotli pedagoglar uchun “5+1” modeli asosida bakalavrlar tayyorlashni yo‘lga qo‘yish ham aynan ushbu zamonaviy yondashuvning amaliy ifodasidir. Mazkur modelda talaba besh kun bevosita ta’lim tashkilotida amaliy faoliyat yuritadi.**

Nuqtayi nazar



BUNYODKOR KUCH

Bugungi globallashuv va tezkor axborot almashinuvi davrida yosh avlodning bilimi va salohiyatini to‘g‘ri yo‘naltirish, bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash hamda jamiyatdagi faol ishtirokini ta’minlash oliy ta’lim oldidagi eng muhim vazifalardan.



Akmal NAZAROV,
Buxoro davlat universitetining yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori

Buxoro davlat universitetida ham yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar ana shu yondashuv asosida tashkil etilib, talabalarning ta’lim olishi bilan bir qatorda bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ijodiy va intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish, sport bilan muntazam shug‘ullanishi, ijtimoiy tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash va muammolarini manzilli hal etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mazkur yo‘nalishdagi ishlar tizimli muvofiqlashtirilgan.

Universitetimizda 2026/2027-o‘quv yilida kunduzgi ta’lim shaklida 10 ming 194 talaba tahsil olmoqda. Ular uchun zarur ijtimoiy va maishiy infratuzilmani rivojlantirishga katta e’tibor qaratilgan. Ta’lim jarayonini tashkil etish uchun 6 ta o‘quv binosi mavjud bo‘lib, ularning umumiy quvvati 7360 o‘rinni tashkil etadi. 7 ta talabalar turar joyi, jumladan, 1 ta davlat-xususiy sheriklik asosidagi talabalar turar joyi faoliyat yuritmoqda. Ularda 2765 ta o‘rin mavjud.

Shuningdek, 6 ta sport zali va 22 ta sport maydonchasi, 8 ta axborot-resurs markazi hamda 870 o‘rinli 7 ta ovqatlanish maskani talabalarga xizmat ko‘rsatmoqda.

Umuman olganda, universitetimizda talabalarning nafaqat auditoriyada, balki auditoriyadan tashqarida ham qobiliyatini namoyon etishi uchun imkoniyat yaratishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda.

Yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish masalasiga tizimli yondashilmoqda. Buning uchun talabalarning qiziqishi va iste’dodini rivojlantirish uchun 135 ta to‘garak va seksiya faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Ularga 7435 talaba jalb etilgan. 2025/2026-o‘quv yili davomida turli tanlov, musobaqa va festivallardan iborat 325 ta tadbir tashkil etilib, ularda 3274 talaba ishtirok etdi. O‘qish davrida mehnat faoliyati bilan shug‘ullanayotgan talabalar soni 321 nafarni tashkil etmoqda.

Eng muhimi, yoshlarning tashabbusini qo‘llab-quvvatlash faqat universitet miqyosidagi tadbirlar bilan cheklanib qolmayapti. Talabalar xalqaro va respublika miqyosidagi tanlov, musobaqa va festivallarda ham faol qatnashib, jumladan, 627 nafari sovrinli o‘rinlarni egallagan. Bu raqamlar ortida iste’dodini namoyon etayotgan, o‘z ustida ishlayotgan va mamlakatimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shishga intilayotgan minglab yoshlarning izlanishi mujassam.

Universitetimizda yoshlar bilan ishlash tizimida tadbirlarning mazmuni va amaliy natijadorligiga alohida e’tibor qaratilmoqda. 2026-yil davomida universitet tashabbusi bilan 8500 dan ziyod tadbir tashkil etildi. Ular jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish, OIV/OITS va giyohvandlikka qarshi kurashish, korrupsiyaning oldini olish, terrorizm va ekstremizmga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish, vatanparvarlik, madaniyat, ma’rifat, sport va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etish kabi ko‘plab yo‘nalishlarni qamrab oldi. Besh muhim tashabbus doirasida esa 521 tadbir o‘tkazilib, yoshlarning madaniyat va san’at, sport, axborot texnologiyalari, kitobxonlik hamda bandlik yo‘nalishlaridagi faolligi oshirildi.

Yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishda sportning o‘rni beqiyos. Buxoro davlat universitetida 2026-yil 12-sentabrga qadar 120 dan ortiq sport tadbiri o‘tkazilib, haftasiga o‘rtacha 7-8 ta sport tadbirini tashkil etish tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Talabalar ligasida universitetning yigitlar jamoasi 2024, 2025 va 2026-yillarda ketma-ket uchinchi marta chempionlikni qo‘lga kiritdi. Qizlar jamoasi esa ikkinchi o‘rinni egalladi. Talabalarimizning xalqaro maydondagi ishtiroki ham e’tiborga loyiq. Jumladan, voleybol bo‘yicha talabalarimiz xalqaro musobaqalarda O‘zbekiston sharafini munosib himoya qilib kelmoqda.

Yoshlarning sportga qiziqishini yanada oshirish maqsadida chorshanba kuni “Sport kuni”, payshanba kuni esa “Yoshlar kuni” sifatida yo‘lga qo‘yildi. “Ziyorat velomarafoni”, “Rektor kubogi” kabi loyihalar yoshlarni sog‘lom turmush tarziga keng jalb etmoqda.

“Yangi O‘zbekiston talabalari olimpiadasi” respublika finalida Buxoro davlat universitetining 77 talabasi ishtirok etgani ham universitetda sport zaxirasini shakllantirishga berilayotgan e’tibor natijasidir.

Yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish Buxoro davlat universitetida yoshlar ishlarining ustuvor yo‘nalishlaridan. Talabalar respublika va xalqaro miqyosdagi turli tanlovlarda munosib natijalarga erishib kelmoqda. “Ma’rifat maydoni” tanlovining final bosqichida universitetning “Irfon” jamoasi uchinchi o‘rinni egallab, 20 million so‘mlik mukofot bilan taqdirlandi.

“Yoshlar — giyohvandlikka qarshimiz!” tanlovida “Umid” jamoasi uchinchi o‘rinni qo‘lga kiritib, 100 million so‘mlik mukofotga sazovor bo‘ldi. Shuningdek, “Amir Temur vorislari” tanlovida uchinchi, “To‘maris izdoshlari” tanlovida esa ikkinchi o‘ringa munosib ko‘rildi. Bunday natijalar yoshlarning bilimi va iste’dodini namoyon etish uchun yaratilayotgan imkoniyatlar bilan birga ularning o‘z ustida ishlashga intilishi tobora kuchayib borayotganidan dalolat beradi.

Yoshlar bilan ishlashda ularning ijtimoiy muammolarini o‘rganish va manzilli hal etish alohida ahamiyat kasb etadi. Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 28-yanvardagi tegishli qaroriga asosan fevral-iyun oylarida 165 talabaga 40 million 750 ming so‘m miqdorida subsidiya ajratildi. Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda ijtimoiy faolligini oshirish maqsadida hamkor tashkilotlar bilan 40 dan ortiq ma’naviy-ma’rifiy va profilaktik tadbir tashkil etildi. Yoshlarning murojaatlarini tezkor qabul qilish va muammolarini o‘rganish uchun maxsus telegram-bot ishga tushirildi. Bunday yondashuvdan asosiy maqsad talabalarning o‘z muammosi bilan yolg‘iz qolib ketmasligini ta’minlashdir.

Yozgi ta’til davrida yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishga qaratilgan “Dolzarb 90 kun” loyihasi doirasidagi ishlar ham izchil davom ettirildi. Jumladan, yoshlarni sport, madaniyat, ijodkorlik va jamoatchilik tadbirlariga keng jalb etish, ijtimoiy faolligini oshirish hamda sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishga alohida e’tibor qaratildi.

Mazkur tashabbuslar universitetda yo‘lga qo‘yilgan “Yoshlar kuni”, “Sport kuni”, velomarafonlar, sport musobaqalari va ma’naviy-ma’rifiy uchrashuvlar bilan uyg‘unlashtirildi. Bu esa yozgi ta’til davrini yoshlar uchun shunchaki dam olish emas, balki yangi bilim, ko‘nikma va tajriba orttirish davriga aylantirishga xizmat qildi.

Bugun yoshlar bilan ishlash samaradorligini faqat o‘tkazilgan tadbirlar soni bilan baholash yetarli emas. Asosiy mezon tadbir va loyihaning talabalar hayotidagi amaliy natijasi, xususan, dunyoqarash, bilim, kasbiy rivojlanish, sog‘liq va ijtimoiy faollikka ko‘rsatgan ta’siridir. Shu nuqtai nazardan, Buxoro davlat universitetining yoshlar bilan ishlash tizimida tadbirlarni mazmunan boyitish, profilaktik ishlarni manzilli tashkil etish, talabalar tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, kafedralar faoliyatini rag‘batlantirish, raqamli imkoniyatlardan foydalanish va yoshlarning individual ehtiyojlariga e’tibor qaratish kabi yo‘nalishlarga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

Kelgusida “Kitobxon talaba”, “Mening tashabbusim”, “Halollik haftaligi”, “Huquq bilimdonlari”, “Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari”, “Chempionlar maktabi” kabi loyihalarni kengaytirish, sport zaxirasini mustahkamlash, talaba qizlarning ilm-fan, innovatsiya va ijtimoiy hayotdagi ishtirokini oshirish ko‘zda tutilgan. Chunki bugun universitet auditoriyasida tahsil olayotgan yoshlar ertangi kunning olimlari, pedagoglari, muhandislari, tadbirkorlari, davlat va jamiyat boshqaruvida faol ishtirok etadigan mutaxassislaridir. Ularning har biriga yaratilgan imkoniyat mamlakat kelajagiga kiritilgan sarmoyadir.



Uyg‘oq fikr

PAXTA ISHI DEB...

YOXUD HOZIRGI DORILAMON KUNLAR ORZUMIZ EDI

Inson hayotida nima voqealar bo‘lmaydi deysiz. Men qatori yoshi keksalar sobiq ittifoq davrida tug‘ilgan bo‘lsak-da, ko‘p qiyinchiliklarni boshdan o‘tkazdik. Biroq ota-onamiz hech qachon nolimaslikni, sabrning mukofoti borligini bolaligimizdan qalbimizga singdirgan. Avvalo, tinchlik, omonlik bo‘lsin deyishgan. Shuning uchun duo qilganimizda hamisha tinchlik-xotirjamlik bo‘lishini Allohdan so‘rab kelganmiz. Chunki tinchlik bo‘lmasa, ko‘ngilga hech narsa sig‘masligini katta yoshdagi odamlar juda yaxshi biladi.



Shunday daqiqalarda o‘tgan hayotimizni eslasam, yuragim uvushib ketadi. Hech yodimdan chiqmaydi: 1959-yil ekan, onam bechora tandirga olov yoqib, non yopish uchun tayyorgarlik ko‘rayotganida, paxta terimi boshlangani sabab brigadir yonib turgan o‘choqqa suv sepib, o‘chirib ketgan. Arzingizga kim quloq soladi? Hech kim! Nima emish, brigadir tepaning topshirig‘ini bajarishi shart, paxta mavsumida uy-ro‘zg‘or yumushi birinchi o‘rinda turmasmish.

Yaratganga beadad shukrlar bo‘lsin, bugungi kunda televizorda ko‘rib, eshitayotganimiz — baxtsizliklar, ayniqsa, suvsizlik, ocharchilik kabi sinovlar bizdan ancha uzoqda. Kechasi bilan xavotirda yotmaymiz. Darvozamiz ochiq qolib ketsa ham birov uyimizga bostirib kirmaydi va tahdid qilmaydi.

Bir paytlar yomg‘ir, qor yoqqanda loyga botadigan chang ko‘chalarimizga asfalt yotqizildi. Qishlog‘imizning chekka joylaridagi uylarga ham toza ichimlik suv kelib turibdi. Avvalgiday faqat o‘choqda choy qaynatib, ovqat pishirish paytlari allaqachon o‘tib ketdi. Yashashimiz yildan yilga yaxshilanyapti. Xullas, yana takror aytamiz, tinchlik bo‘lsa, odam qancha mehnat qilsa ham charchamaydi.

Yana bir narsa esimga tushib ketdi. O‘quvchi-yu talabalar paxta terimi boshlanishi bilan paxtaning quliga aylanardik. Ularga qo‘shilib o‘qituvchi-yu professorlargacha paxta terimiga safarbar etilib, kunlik terim rejasi so‘ralardi. Maktab o‘quvchisi va talabalar dalaga paxta terish uchun keldimi, belgilangan rejani bajarishi, bajarmasa shtabga chaqirilib, albatta, jazosini olishi muqarrar edi. Ovqat masalasi ham o‘z hisobidan, tugunlik non va choydan iborat bo‘lgan. Yana tuman markaziga ishingiz tushsa, yo‘lda organ xodimlari avtobusdan tushirib, ikki-uch kilo bo‘lsa ham paxta terishga majburlashiga nima deysiz? Arzingizni bir aytib ko‘ring-chi, ular sizga quloq solishadimi? Yo‘q!

Sobiq ittifoq davrida kechqurun kolxoz idorasida yig‘ilish bo‘lib, paxta terayotgan brigadalarga kolxozdan bittadan vakil taqsimlanib jo‘natilardi. Agar o‘sha vakil, brigadir rejani bajarmasa, “paxtaning dushmani” nomini olib, dashnom eshitardi. Hatto ishdan olinardi. Biz, gazeta tahririyati xodimlari har shanba, yakshanba kunlari bir jamoa bo‘lib paxta terganmiz.

Nihoyat Prezidentimizning siyosiy irodasi bilan majburiy mehnat singari illatlar — 100 yillik “paxta qulligi” butunlay bekor bo‘ldi. Maktab o‘quvchisi va oliy o‘quv yurti talabasi paxta maydonidan to‘liq o‘qishga qaytdi. Odamlar qalbiga yorug‘lik kirib keldi.

Shu o‘rinda yana bir bor lirik chekinish qilsak. U paytlari uylanadigan yigit, turmushga chiqadigan qizga nikohdan o‘tishiga ruxsat yo‘q edi. To‘ylar esa borib-borib, qish fasliga — yanvar, fevral oylariga to‘g‘ri kelardi. Kechasi soat 12 da to‘y boshlanardi. Kunduzi ishga xalaqit bermasligi aytilardi. Hatto nafaqa pulini ikki-uch oylab ololmagan kunlarimiz bo‘lgan. Pasport olish uchun oylab tuman markaziga qatnaganimiz hech esimdan chiqmaydi. Bugun u kunlarni ertakday eslaymiz. Inson qadri ulug‘langani shu emasmi?

Hozir ozgina intilgan odam uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Mana, bozorlarimiz to‘kin. Ayniqsa, un, non serobligiga ko‘z tegmasin! Bir hovuch don uchun ne azoblarni ko‘rganimiz yodimizda. Yaratganga beadad shukr, tandirlar to‘lib non yopilyapti, milliy bayramlarimiz o‘z vaqtida bo‘lyapti, kitoblarni berkitib o‘qiydigan zamonlar o‘tib ketdi. Ro‘za tutasizmi, diniy arkonlarni bajarasizmi, hech kimning ishi yo‘q. Madrasalarda ta’lim olayotgan qori o‘g‘il-qizlarimiz zakovati ko‘zimizni quvontiradi. To‘ylarimizni aytmaysizmi, paxta terimi mavsumida ham to‘ylar to‘xtamaydi, to‘kin-sochinlikda, hatto qishloqlarda ham zamonaviy to‘yxonalarda o‘tishining o‘zi bir baxt. Bularning bariga shukr qilib yashab, bugungi islohotlarga biz, jamiyatning fidoyi insonlari “labbay” deb javob berishga tayyor turishimiz kerak. Ana shundagina odamlarning halol mehnati Vatan taraqqiyotiga kamarbasta bo‘ladi va yurt ravnaqi tezlashib boraveradi. Vatan shu yo‘sinda bunyod etiladi.

Mardiqul SIDDIQOV,
faxriy jurnalist



Ziyoda AKBARQULOVA,
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi bosh mutaxassisi

Mulohaza

VATAN KEMASI

MUSTAQILLIKNING YANA BIR NOMI MAS’ULIYATDIR

Milliy yuksalish so‘zining salmog‘ini his qilish uchun rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning tarixiy tajribalari hamda taraqqiyot yo‘llarini o‘rganish ayni muddao. Qay bir xalq yuksalish uchun faqat va faqat oldinga intilgan, yangi marralarni zabt etgan va yana olg‘a harakatlangan bo‘lsa, bamisoli dengizdagi kema kabidir. U tinimsiz suzadi, suzaveradi. Ulkan to‘lqinlarga, kuchli shamollarga qarshi turib, dengizchilarning taqdirini-da yelkasiga ortmoqlagancha olg‘a boraveradi. Bu yerda eng og‘ir tosh o‘rnini birgina narsa bosib turadi: mas’uliyat.

Dunyo XVII asrda yashagan niderlandiyalik sayyoh va dengizchi Abel Tasmanni Tasmaniya hamda Yangi Zelandiya tarixi bilan bog‘liq kashfiyotlari orqali yaxshi taniydi. Uning butun umri dengizga bag‘ishlangan. Tarixiy manbalarda faoliyati davomida ikki dengizchini jazolagani uchun sudlangani, shu sababli lavozimidan chetlatilgani, keyinchalik esa o‘z vazifasiga sodiqligi tufayli ishiga tiklanib, xizmatdan nafaqaga chiqqani, umrining so‘nggi kuniga qadar ham bilim, ko‘nikma va tajribalarini kelgusi avlodga yetkazish yo‘lida mehnat qilgani yozib qoldirilgan. Biroq uning tadqiqotlarini o‘rgangan keyingi olimlar avlodi Tasmanning asosiy maqsadi yangi yerlarni kashf etishdan mutlaqo farq qilganini qayd etgan.

“Ost-Indiya” kompaniyasi xizmatchisi sifatida janubiy yarimshardagi yirik dengiz ekspeditsiyalariga rahbarlik qilgan Tasman aslida yangi savdo yo‘llari, resurslar va strategik imkoniyatlarni izlash bilan shug‘ullangan. Uning mehnatlari Niderlandiya uchun g‘oyat muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Tasmanning ekspeditsiyalari natijasida gollandlar janubiy yarimshar va Tinch okeani hududlari haqida kengroq ma’lumotlarga ega bo‘ldi. Bu ma’lumotlar keyinchalik dengiz safarlari uyushtirish, xaritachilik va savdo munosabatlarini rivojlantirishda juda qo‘l keldi.

Tasmanning Yangi Zelandiya Milliy kutubxonasida saqlanayotgan, 1642-1643-yillarni qamrab olgan safar kundaligi o‘rganilganda, tadqiqotchilar hayratga tushgan. Boisi, chorak asrlik hayotini uyidan uzoqda — dengiz sayohatlarida o‘tkazgan sayyoh o‘z kundaligida “yurt sog‘inchi” haqida birorta gap, hatto kichik ibora ham yozib qoldirmagan edi. Faqatgina 1642-yilning 15-avgustida Niderlandiyadan kelayotgan kema haqida bitilgan “Vatandan kelayotgan kema” iborasi Tasman qalbidagi “sog‘inch” tuyg‘usi “mas’uliyat” tushunchasiga almashganini anglatadi. Uzoq yillik mustamlakachilik davridan so‘ng mustaqillikka erishgan, ammo iqtisodiyoti ancha holdan toygan Niderlandiyaning rivoji uchun yo‘lga otlangan bu kichik kemaning maqsadi anchayin buyuk bo‘lganini bugungi kelajak avlod ham e’tirof etadi.

Tasman kabi dengizchilar uchun Vatan shunchaki mashaqqatli sayohat oldidan ortda qolgan sohil emas, balki qaytish umidi bo‘lgan va rivojlangan yurtini ko‘rish istagi edi.

Biz mustaqillikni qo‘lga kiritish oson bo‘lmaganiga guvoh bo‘lgan avlodmiz. Ayni paytda esa unga to‘laqonli egalik qilish uchun ulkan mas’uliyat kerakligini his etib yashashga ham burchlimiz. Mamlakatimiz mustaqilligining 35 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda davlatimiz rahbari kelgusi o‘n yillikni milliy yuksalish davri deb atagani bejiz emas. Unda inson qadrini yanada yuksaltirishga qaratilgan yettita milliy dastur — bilim va malaka, sog‘lom avlod, yuqori texnologiyali iqtisodiyot, suv va ekologiya, qonun ustuvorligi, mahalla hamda xalqaro tinchlik va do‘stlik yo‘nalishlari belgilab berildi.

Prezidentimiz e’lon qilgan mazkur yetti dastur bizga nima beradi?

Birinchi yo‘nalish — bilimni milliy kapitalga aylantirish. Milliy yuksalishning yangi bosqichida asosiy savol “Qancha kishi ta’lim olmoqda?” deb emas, balki “Qancha inson yuqori sifatli bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lmoqda?” deya qo‘yiladi. Demak, diplomlar sonidan kompetensiyaga, ta’lim qamrovidan ta’lim natijasiga, shunchaki ma’lumot berishdan mustaqil fikrlaydigan insonni tarbiyalashga o‘tish davri boshlandi. Bir so‘z bilan aytganda, bugungi maktab bitiruvchisi ertangi mehnat bozorida bemalol raqobatlasha olishi kerak. Bugungi talaba ertangi texnologiyani yarata olishi lozim. Bugungi olim esa o‘z tadqiqotlarini ishlab chiqarish va jamiyat ehtiyojlari bilan bevosita bog‘lay olishi zarur.

Milliy yuksalishning asosiy kuchi bilim, bugungi kunda Vatanga xizmat qilishning eng katta maydonlaridan biri aynan ilm-fan sohasi ekanini bir vaqtlar juda og‘ir ijtimoiy-iqtisodiy sharoitni boshidan kechirgan Janubiy Koreya misolida yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Ushbu mamlakat qisqa tarixiy davr ichida ta’lim, texnologiya, infratuzilma va inson kapitaliga yirik sarmoyalar kiritish orqali ulkan o‘zgarishlarga erishdi, o‘z tarixini, o‘z taqdirini o‘zi yaratdi. Bularning barchasi ortida ko‘zga ko‘rinmas, ammo o‘ta qat’iy mas’uliyat yotibdi.

Bugun dunyoning ko‘plab mamlakatlarida “sog‘lom inson — kuchli millat” g‘oyasini ilgari surish uchun imkoniyatlar yetarli bo‘lmayapti. Shu ma’noda, so‘nggi yillarda yurtimizda tibbiyot sohasiga ajratilayotgan mablag‘ sezilarli darajada oshgani alohida e’tirofga loyiq. Bugun eng chekka mahallalarimizda ham aholiga sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatish bo‘yicha qilinayotgan ishlar va islohotlarning amaliy natijalariga barchamiz guvoh bo‘lib turibmiz. Yangi tibbiyot muassasalari barpo etilib, murakkab diagnostika va davolash usullari o‘z yurtimizda yo‘lga qo‘yilayotgani olisimizni yaqin, mushkulimizni oson qilmoqda. Mamlakatimizda o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi 1991-yildagi 66,4 yoshdan 2025-yilga kelib 75,4 yoshga yetgani ham ulkan ijobiy natija. Biroq biz faqat bu bilan cheklanib qolmayapmiz. Yangi dastur tibbiyot oldidagi vazifalarni yanada kengaytirmoqda. Endilikda biz shunchaki kasallikni davolaydigan tizimdan sog‘lom turmush tarzini shakllantiradigan jamiyatga o‘tishni maqsad qildik. Xalqona qilib aytganda, kasallikni davolashdan ko‘ra, uning oldini olishni muhimroq vazifa deb bilyapmiz. Bu esa, o‘z navbatida, profilaktika, to‘g‘ri ovqatlanish madaniyati, jismoniy faollik, ruhiy va bolalar salomatligi hamda sog‘lom muhitga e’tiborni kuchaytirishni, har birimizdan yanada mas’uliyatliroq bo‘lishni talab etadi.

Har qanday rivojlanayotgan mamlakatda “iqtisodiy o‘sish” tushunchasining mustaqillik davri bilan hamnafas bo‘lishi tabiiy. Ammo endilikda bu iboraning “texnologik yuksalish” bilan yonma-yon qo‘llanila boshlashi chinakam zamon talabiga aylandi. Kelajakda mamlakatlar tabiiy resurslari bilan emas, balki bilim va texnologiyalarni qay darajada boshqara olishi bilan o‘zaro raqobatlashadi. O‘zbekiston iqtisodiyotiga jalb etilayotgan xorijiy investitsiya hajmi so‘nggi yillarda sezilarli darajada ortgani, yurtimiz yalpi ichki mahsuloti 160 milliard dollarlik marraga yetishi kutilayotgani milliy yuksalishning asl iqtisodiy mazmunini namoyon etadi. Ya’ni bu arzon ishchi kuchiga emas, balki yuqori mehnat unumdorligi, ilg‘or texnologiyalar, innovatsiya va inson kapitaliga tayangan kuchli iqtisodiyot barpo etishga qaratilgan strategiyadir. Bu esa, o‘z-o‘zidan, ilm-fan bilan ishlab chiqarish o‘rtasidagi bog‘liqlikni mustahkamlash, texnologik tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, mahalliy brendlarni xalqaro bozorga olib chiqish, raqamli iqtisodiyotni kengaytirish, sun’iy intellektdan samarali foydalanish hamda yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini eng ustuvor vazifalarga aylantiradi. Ularning barchasi, eng avvalo, yuksak mas’uliyatni talab qiladi.

Shu kunga qadar biz tabiat oldida faqat iste’molchi maqomida bo‘lib keldik. Hozirgi davr esa oldimizga tabiat bilan uyg‘un yashashdek qat’iy talabni qo‘ymoqda. Suv va ekologiyaga oid masalalar endilikda faqat bir sohaning muammosi emas. Bu bevosita iqtisodiyot, qishloq xo‘jaligi, aholi salomatligi, shaharsozlik, eng muhimi, kelajak avlod taqdiri bilan bog‘liq masala. Biz suvga munosabatni o‘zgartirish deganda faqatgina yangi texnologiyalar o‘rnatishni emas, avvalo, insonlar tafakkurini o‘zgartirishni tushunishimiz lozim. Suv tejashni kundalik odatga, hattoki milliy qadriyatga aylantirishimiz shart. Toza ekologiya — bizdan kelajak avlodga qoladigan eng bebaho meroslardan biri. Tabiat oldidagi burchimizni bajarish mas’uliyatini chuqur his etishimiz esa kelajak oldidagi qarzimizdir.

Har yili ko‘plab qonunlar qabul qilinadi. Ammo qonunni shunchaki qog‘ozdagi talab emas, kundalik hayot me’yoriga aylantirishimizgina chinakam sud mustaqilligi va qonun ustuvorligini ta’minlaydi. Bu jihat milliy yuksalishning alohida yo‘nalishi sifatida belgilab qo‘yilgan bo‘lib, u milliy taraqqiyotimizning eng mustahkam poydevorlaridan biridir.

Har bir fuqaro qonun oldida o‘zini to‘laqonli himoyalangan his qilishi, tadbirkor qonun-qoidalarga qat’iy rioya etishi va o‘z huquqi himoya qilinishiga ishonishi, sudga murojaat qilgan inson esa faqatgina natijani emas, avvalo, adolatli jarayonni kutishi lozim. Ana shundagina qonun qog‘ozdagi normadan jamiyatning ichki madaniyatiga aylanadi.

Milliy yuksalishning haqiqiy mezoni quruq raqamlarning o‘zi emas, ana shu raqamlar ortida turgan insonning real hayoti va taqdiridir. Qachonki, biz bir yoshning sifatli ta’lim olishiga faqatgina bir insonning emas, butun mamlakat kelajagiga tikilgan sarmoya deb qaray boshlasak, bir oilaning kambag‘allikdan chiqishini shunchaki statistik ko‘rsatkich emas, butun boshli avlodlar taqdirining ijobiy tomonga o‘zgarishi deb bilsak, bir olimning yangi kashfiyotini navbatdagi oddiy ilmiy maqola emas, yangi iqtisodiy imkoniyatlar eshigi deb baholasak, sudning adolatli qarorini bitta ishning yakuni emas, jamiyatda qonunga ishonchning mustahkamlanishi deb qabul qilsak, milliy yuksalishga bugundanoq o‘z hissamizni qo‘shayotgan bo‘lamiz.

Zero, yuqorida ta’kidlanganidek, mustaqillikning yana bir nomi bu — mas’uliyat.



“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-1046.
29213 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Avazbek Xudoyqulov
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33
E’lonlar bo‘limi: (71) 233-70-98
E-mail: info@yuz.uz
Веб-сайт: www.yuz.uz: (71) 233-47-05
Devonxona va ishonch telefoni: (71) 233-56-60